

YANGI O'ZBEKISTON: ILMYIY TADQIQOTLAR

CONFERENCES.UZ 2026

DAVRIYLIGI: 2018-2026



Карл Бенц
1885 год
Германия

Мощность:
0,9 л.с.

BIRINCHI BENZ AVTOMOBILI

Вид топлива: бензин

Масса: 265 кг


Двигатель: 0,954 L



Тип кузова: мотоколяска без дверей
Число мест - 2

Компоновка: переднемоторная, заднеприводная

Колёсная формула: 4x2



Ширина: 1200 мм

Высота: 1400 мм

Коля задняя: 1190 мм

Колёсная база: 1450 мм

Длина: 2400 мм



TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TADIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



MART №86



**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР 2-
ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-2**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC
RESEARCH PART-2**

ТОШКЕНТ-2026



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

И-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2026]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 86-қўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2026 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2026. – 97 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютуқларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар –

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни-

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви-

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика-

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –



Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8. Адабиёт-

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодийта инновацияларнинг тутган ўрни -

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11. Жисмоний тарбия ва спорт-

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14. Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15. Мусиқа ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17. Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –

Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

19. Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содикович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

20. Ветеринария

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

21. Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоний вилояти табиий фанлар методисти)

22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Ўўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)



23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қахҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page maker/Верстка/Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакции журнала.

www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:
info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of

www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:
info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000



**XALQARO SHARTNOMALARNI TALQIN QILISH: VENA
KONVENSIYASI QOIDALARI VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR
AMALIYOTI O‘RTASIDAGI ZIDDIYATLAR**

Muhammadiyahva Ruhshona Muzaffar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti, 2-bosqich talabasi

ruhshonamuhammadiyahva777@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola 1969-yildagi Vena konvensiyasi asosidagi xalqaro shartnomalarni talqin qilish qoidalarini rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Vena konvensiyasining 31–32-moddalari universal me‘yorlar belgilagan bo‘lsa-da, ularning amalda qo‘llanilishi davlatlar o‘rtasida sezilarli farqlarni yuzaga keltirmoqda. Rivojlanayotgan davlatlar ko‘pincha milliy manfaatlar, madaniy kontekst va tarixiy tajriba nuqtai nazaridan an‘anaviy talqin usullari ularga yetarlicha e‘tibor bermasligini ta‘kidlaydi. ICJ va PCIJ amaliyotidagi S.S. Wimbledon, NAFTA hamda Daimler v. Argentina ishlari ushbu ziddiyatlarning mohiyatini namoyon etadi. Xalqaro huquqning barqarorligi va adolatliligini ta‘minlash uchun shartnomalarni talqin qilishda yagona va muvozanatli metodologiyani shakllantirish zarurdir.

Kalit so‘zlar: Xalqaro shartnomalar huquqi, Vena konvensiyasi (1969), shartnoma talqini, grammatik talqin, teleologik talqin, rivojlanayotgan davlatlar, ICJ, PCIJ, ratifikatsiya, implementatsiya, NAFTA, davlatlarning suveren tengligi.

I. Kirish

Xalqaro huquqning tartibga solish mexanizmi xalqaro odat normalari, shartnomalar, umumiy prinsiplar, sud qarorlari va huquqiy doktrinalar orqali amalga oshiriladi. Qadimgi Rim huquqida aytilganidek: "forma legalis — forma essentialis", ya‘ni huquqiy hujjatlarning shakli muhim ahamiyatga ega. Xalqaro munosabatlarni tartibga solishda yozma shaklga ega bo‘lgan xalqaro shartnomalar asosiy o‘rinni egallaydi.

Xalqaro shartnomalar huquqi zamonaviy xalqaro huquq tizimining asosi hisoblanadi. Davlatlar o‘rtasidagi ko‘p asrlik munosabatlar tarixida shartnomalar orqali xalqaro tinchlik, xavfsizlik, savdo, ekologiya va inson huquqlari sohalarida barqaror huquqiy tartib o‘rnatilgan. Hozirgi davrda xalqaro shartnomalar soni va turlari tobora ko‘payib borayotganligi bois ularning to‘g‘ri talqin qilinishi xalqaro munosabatlarning barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.



Ushbu maqolaning maqsadi Vena konvensiyasi asosidagi shartnomalar talqinining nazariy asoslarini tahlil etish, xalqaro sud amaliyotlarini ko‘rib chiqish, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasini qiyoslash hamda muammoni bartaraf etish yo‘llarini taklif qilishdan iborat. Maqolada quyidagi masalalar tahlil qilinadi:

- Vena konvensiyasi qoidalarining universalligi;
- Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning amaliy talqin usullari;
- Vena konvensiyasining 31, 32-moddalari doirasida davlatlar amaliyoti;
- ICJ va boshqa xalqaro sudlarning kelishmovchiliklarni bartaraf etish usullari;
- Aniqlangan muammolarning xalqaro huquq subyektlari uchun oqibatlari va ularni bartaraf etish taklif-yo‘llarinining taqdim etilishi.

II. Ilmiy-nazariy qism

Xalqaro shartnomalarni talqin qilish masalasi kodifikatsiya jarayonining asosiy yo‘lnalishlaridan birini tashkil etgan. 1928-yilda qabul qilingan Gavana konvensiyasi yetarli ovoz to‘play olmay kuchga kirmagan bo‘lsa-da, keyinchalik uchta universal konvensiya bu bo‘lishliqni to‘ldirdi:

- "Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risida"gi 1969-yil 23-maydagi Vena konvensiyasi;
- "Davlatlarning shartnomalarga nisbatan huquqiy vorisligi to‘g‘risida"gi 1978-yildagi Vena konvensiyasi;
- "Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi shartnomalar huquqi to‘g‘risida"gi 1986-yildagi Vena konvensiyasi.

Rus olimi Bekyashev B.A. ta‘kidlaganidek, Vena konvensiyasining 31–32-moddalari talqinning asosiy qoidalarini belgilab bergan bo‘lsa-da, bu qoidalarning amalda qo‘llanilishi, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar tomonidan, turli muammoviy vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. Rivojlanayotgan davlatlar ko‘pincha an‘anaviy talqin qilish qoidalari o‘zlarining milliy manfaatlarini, madaniy konteksti va tarixiy tajribasiga yetarlicha e‘tibor bermasligini ta‘kidlaydi.

Shartnomalarni talqin qilish usullari

Danubius xalqaro universiteti professorlari Jana Maftei va Coman Varvara o‘zlarining "Interpretation of Treaties" maqolasida sharhlashning bir qancha turlarini bayon etgan. Subyektga ko‘ra: (1) Autentik (rasmiy) sharhlash — shartnomani qabul qilgan subyektning o‘zi tomonidan amalga oshiriladi va majburiy kuchga ega; bunda jamoaviy yoki yakka (bir tomonlama) sharhlash farqlanadi. (2) Norasmiy sharhlash — xalqaro tashkilotlar, sud organlari (ICJ, ICC) yoki olimlar tomonidan amalga oshiriladi.

Mazmuniga ko‘ra: Obyektiv sharhlashda faqat shartnomaning o‘zi asoslanadi; subyektiv sharhlashda esa davlatlarning asl niyatini aniqlash uchun tayyorgarlik materiallari va diplomatik yozishmalar o‘rganiladi. Natijasiga ko‘ra esa so‘zma-so‘z, kengaytirilgan, cheklovchi, grammatik va mantiqiy sharhlash usullari



farqlanadi. Grammatik sharhlashda soʻzlar etimologiya, sintaksis va stilistika nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, mantiqiy sharhlashda mantiq qonun-qoidalariga asoslaniladi.

III. Huquqiy asoslar

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasi mamlakatimiz xalqaro munosabatlarning toʻla huquqli subyekti ekanligini taʼkidlaydi. 15-moddaning 3-qismida esa xalqaro shartnomalar Oʻzbekiston huquqiy tizimining tarkibiy qismi ekanligi belgilangan. Bu xalqaro shartnomalarning nafaqat davlatlararo munosabatlarda, balki davlatning ichki faoliyatida ham muhim oʻrin egallaganini koʻrsatadi.

"Oʻzbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalari toʻgʻrisida"gi qonunning 3-moddasiga koʻra, xalqaro shartnoma deganda — bitta yoki bir-biri bilan bogʻliq bir nechta hujjatdan iborat boʻlishidan, nomidan va tuzilish usulidan qatʼi nazar, Oʻzbekiston Respublikasi tomonidan chet davlat yoki xalqaro tashkilot bilan yozma shaklda tuzilgan, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan kelishuv tushuniladi.

Xalqaro huquq Komissiyasining birinchi maʼruzachisi J. Braerli taʼkidlaganidek: "Xalqaro shartnoma tuzish layoqatiga ega boʻlgan subyektlar tomonidan tuzilgan har qanday shartnoma ham xalqaro shartnoma boʻlavermaydi". Buning uchun shartnomaning obyektini xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan munosabat boʻlishi shart. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2012-yil 25-maydagi 6-sonli qarorida ham xalqaro shartnomalarga asoslangan holda sud ishini hal qilish tavsiya etilgan.

IV. Sudlov organlari amaliyoti

NAFTA ishi

Vena konvensiyasining 33-moddasi koʻp tillarda tuzilgan shartnomalarni qanday izohlash kerakligi haqida qoida oʻrnatadi: barcha qoʻllanilgan tillarni hisobga olgan holda talqin qilinishi lozim. Turli tillar oʻrtasida ziddiyat mavjud boʻlganda, odatda haqiqiy matn ustunlik qiladi.

NAFTA — AQSh, Kanada va Meksika oʻrtasidagi savdo shartnomasi boʻlip, 1994-yilda kuchga kirgan. Shartnoma ingliz, fransuz va ispan tillarida yozilgan, uchala versiya ham bir xilda haqiqiy hisoblanadi. NAFTA Erkin savdo komissiyasi turli tillar oʻrtasida ziddiyat yuzaga kelganda, haqiqiy matn ustunlik qiladi, deb qaror qildi. Bu qaror Vena konvensiyasida koʻrsatilgan koʻp tilli shartnomalarni talqin qilishda bir xillik va izchillikni taʼminlovchi tamoyilga asoslangan edi.

S.S. Wimbledon ishi va PCIJ amaliyoti

Charles Cheney Hyde oʻzining "The Interpretation of Treaties by the Permanent Court of International Justice" maqolasida PCIJ amaliyotining muhim tomonlarini ochib beradi. Eng muhim ishlardan biri S.S. Wimbledon ishi boʻlip, unda Buyuk



Britaniya, Fransiya, Italiya va Yaponiya tomonidan ko'tarilgan da'vo Germaniyaning Versal shartnomasiga amal qilishi masalasiga qaratilgan edi.

Sud Germaniya neytral bo'lgan taqdirda ham, shartnomadagi aniq majburiyatlar o'z kuchida qolishini ta'kidladi. Bu ish talqinning so'zma-so'z ma'nosi shartnomaning umumiy ruhidan ustun turishini ko'rsatdi. Polsha bilan bog'liq ozchiliklar masalasida ham PCIJ davlatlarning siyosiy izohlaridan ko'ra matnning oddiy ma'nosi va shartnomaning tuzilishiga tayanib, aniq va neytral talqin berdi. Hyde ta'kidlaganidek, PCIJ ko'pincha so'zlarning oddiy, tabiiy ma'nosidan chetga chiqmaydi, ammo zarurat tug'ilganda cheklovchi talqin usulidan ham foydalanadi.

Daimler v. Argentina ishi

Eirik Bjorge o'zining "Evolutionary Interpretation and the Intention of the Parties" maqolasida xalqaro shartnomalarni talqin qilishda davlat roziligi va uning shartnomaga qo'shilgan paytdagi irodasini aniqlash eng muhim tamoyillardan biri ekanligini ta'kidlagan. U shartnomalarni zamonga mos holda, ya'ni yangilanayotgan dunyoga muvofiq talqin qilish kerakligini ilgari suradi.

Daimler v. Argentina ishida sudya Pierre-Marie Dupuy barcha shartnomalar — ikki tomonlama bo'lsin yoki ko'p tomonlama — davlatning o'z xohishi bilan qabul qilgan majburiyati ekanligini, shu sababli talqin qilishda doimo davlatlarning umumiy irodasini aniqlash mezon bo'lishi kerakligini qayd etdi. Bu yondashuv shartnomalarni statik emas, balki dinamik tarzda tushunishni taqozo etadi.

V. Xulosa

Xulosa qilib aytganda, xalqaro shartnomalarni talqin qilish masalasi zamonaviy xalqaro huquqning eng muhim va murakkab jihatlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu tahliliy ishda biz 1969-yildagi Vena konvensiyasi asosidagi shartnomalar talqinining nazariy asoslari, xalqaro sud amaliyotlari hamda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasini qiyoslash orqali bir qancha muhim xulosalarga keldik.

Vena konvensiyasi xalqaro shartnomalarni talqin qilishning universal qoidalarini belgilab bergan bo'lsa-da, amalda bu qoidalarning qo'llanilishi davlatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, madaniy holati va tarixiy tajribasiga qarab turlicha amalga oshirilmoqda. Rivojlanayotgan davlatlar ko'pincha an'anaviy talqin usullarining o'z milliy manfaatlari va mahalliy sharoitlariga yetarlicha e'tibor bermasligidan shikoyat qiladi.

S.S. Wimbledon ishida so'zma-so'z talqin tamoyili, NAFTA ishida ko'p tillilik muammosi, Daimler v. Argentina ishida esa evolyutsion yondashuv muhim o'rin tutgan. Bu sud amaliyotlari shuni ko'rsatadiki, turli xalqaro sud organlari bir xil shartnoma qoidalariga nisbatan turlicha yondashuvlarni qo'llamoqda. Ushbu holat xalqaro huquqda izchillik va bashoratlilik tamoyillariga zid bo'lishi mumkin.



Xalqaro shartnomalarning to'g'ri talqin qilinishi xalqaro huquqning samarali ishlashi, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning barqarorligi va adolatli xalqaro tartibning ta'minlanishi uchun zarur. Shu maqsadda quyidagi tavsiyalar beriladi:

- Rivojlanayotgan davlatlar manfaatlarini hisobga oluvchi moslashuvchan talqin metodologiyasini ishlab chiqish;
- ICJ va boshqa xalqaro sudlar amaliyotida talqin izchilligini ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish;
- Vena konvensiyasiga shartnomalar talqinida madaniy kontekst va tarixiy tajribani hisobga oluvchi qo'shimcha protokol ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
3. Vena konvensiyasi 1969-yil 23-may. (Shartnomalar huquqi to'g'risida).
4. 1986-yildagi Vena konvensiyasi. (Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risida).
5. "O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi qonun.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 25.05.2012-yildagi 6-son qarori.

Ilmiy adabiyotlar:

7. Bjorge E. Evolutionary Interpretation and the Intention of the Parties. University of Oslo Faculty of Law Legal Studies Research Paper Series No. 2012-33.
8. Hyde Ch.Ch. The Interpretation of Treaties by the Permanent Court of International Justice // JSTOR. URL: <https://www.jstor.org/stable/2189296>
9. Lukashuk I.I., Saidov A. Hozirgi zamon xalqaro huquq nazariyasi asoslari.
10. Yuldasheva G.Y. (mas'ul muharrir). Xalqaro huquq. Darslik. — T.: TDYU nashriyoti, 2018. — 122-bet.
11. Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Xalqaro ommaviy huquq: Darslik. — Toshkent: Adolat, 2007. — 25-bet.
12. <https://www.lex.uz>
13. <https://www.norma.uz>
14. <https://www.jstor.org>
15. <https://scholar.google.com>



ТЎЛОВГА ҚОБИЛИЯТСИЗЛИК ТЎҒРИСИДАГИ ҚОНУНЧИЛИК НОРМАЛАРИНИНГ АЙРИМ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Умиджон Рахимов
Сурхондарё вилоят суди
судьяси

Аннотация: Мазкур мақолада тўловга қобилиятсизликка оид иқтисодий ишларни иқтисодий судларда кўриш амалиёти таҳлил қилинган. Шунингдек, суд амалиётида учрайдиган муаммолар, жумладан қарздорнинг мол-мулкани аниқлаш, кредиторлар талабларини қондириш тартиби ҳамда банкротлик жараёнининг узоқ давом этиши билан боғлиқ масалалар кўриб чиқилган. Мақолада миллий қонунчилик нормалари ва суд амалиёти таҳлили асосида мазкур муаммоларни бартараф этиш бўйича таклиф ва тавсиялар илгари сурилган.

Калит сўзлар: тўловга қобилиятсизлик, банкротлик, иқтисодий суд, кредитор, қарздор, суд бошқарувчиси, банкротлик тартиби, иқтисодий низо, суд амалиёти.

“Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига асосан қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш кўзғатиш ҳақидаги ариза мазкур Қонунда назарда тутилган талабларга жавоб бериши керак.

Қонуннинг 5-моддасига кўра, тўловга қобилиятсизлик аломатлари вақтинча ва доимий тўловга қобилиятсизлик аломатларидан иборат бўлиб, агар тегишли мажбуриятлар юзага келган санадан эътиборан уч ой ичида қарздор томонидан бажарилмаган бўлса, шаҳарни ташкил этувчи корхона ҳамда унга тенглаштирилган корхоналар томонидан эса олти ой ичида бажарилмаса, судга мурожаат этиш санасида қарздорнинг пул мажбуриятлари бўйича кредиторлар талабларини қаноатлантиришга ва (ёки) солиқлар ҳамда йиғимлар бўйича ўз мажбуриятларини бажаришга қодир эмаслиги вақтинча тўловга қобилиятсизлик, агар судга ариза бериш санасидаги ва ариза берилган йилнинг бошидаги ҳисобот даврида, агарда ариза йилнинг биринчи чорагида берилган бўлса, ўтган йилнинг бошидаги ҳисобот даврида қарздорнинг мажбуриятлари унинг активлари қийматидан ошиб кетган бўлса, доимий тўловга қобилиятсизлик аломатлари ҳисобланади.

Шунингдек, Қонунга мувофиқ, мазкур қоидалар тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги ишлар соддалаштирилган тартибда кўриб чиқиладиганда, жисмоний шахслар, шунингдек яқка тартибдаги тадбиркорнинг тўловга қобилиятсизлиги тўғрисидаги ишлар кўриб чиқиладиганда қўлланилмайди.



Қонунга кўра, давлат солиқ хизмати органининг тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги аризалари кредитор, қарздор ва бошқа давлат органлари томонидан бериладиган аризаларга нисбатан ўзига хос хусусиятга эга.

Хусусан, Қонун 45-моддасининг иккинчи қисмига биноан, давлат солиқ хизмати органининг ҳамда бошқа ваколатли органнинг қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш кўзғатиш ҳақидаги аризасига қонунчиликка мувофиқ солиқлар ҳамда йиғимлар бўйича қарзни қайтариб олишга доир чора-тадбирлар кўрилганлиги далиллари илова қилиниши керак.

Мазкур норма шуни назарда тутадигани, давлат солиқ хизмати органи Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексида назарда тутилган тартибда солиқлар ҳамда йиғимлар бўйича қарзни қарздорнинг мол-мулки ҳисобидан ундириш юзасидан барча чораларни кўриши, қарздорнинг қарздорликни қоплаш учун мол-мулки мавжуд бўлмаган тақдирда, қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш кўзғатиш ҳақида иқтисодий судга ариза билан мурожаат этиши лозим. Қарзни қоплаш учун қарздорнинг мол-мулки мавжуд эмаслиги давлат ижрочисининг ижро ишини тамомлаш ҳақидаги қарори билан ўз тасдиғини топиши лозим.

Иқтисодий судлар амалиётида давлат солиқ хизмати органлари томонидан қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш кўзғатиш ҳақида аризалар тақдим этишда, Қонуннинг юқорида қайд этилган нормасига амал қилмаётганлигини кўриш мумкин. Хусусан, ишни кўриш жараёнида қарздорнинг солиқ қарзини қоплаш учун етарли миқдорда мол-мулки борлиги, бироқ солиқ қарзини ундириш юзасидан ижро иши тамомланмасдан, судга ариза билан мурожаат этилаётганлиги аниқланмоқда.

Бизга маълумки, Қонунда давлат солиқ хизмати органлари судга ариза билан мурожаат этишдан солиқлар ҳамда йиғимлар бўйича қарзни қайтариб олишга доир чора-тадбирлар кўрилиши кераклиги ҳақида норманинг мавжудлиги, Қонуннинг асосий мақсади қарздор ташкилотни банкрот қилиш эмас, агар солиқ қарзини қоплаш учун мол-мулк мавжуд бўлмаган ҳолатда, судга ариза билан мурожаат этиш лозимлигини аниқлатади.

Шу сабабли давлат солиқ хизмати органлари судга қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш кўзғатиш ҳақида аризалар тақдим этишдан олдин, албатта Қонунда белгиланган нормаларга риоя қилган ҳолда, солиқлар ҳамда йиғимлар бўйича қарзни ундиришга доир чора-тадбирлар кўриши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги ЎРҚ-763-сонли 12.04.2022 йилги Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикасининг Иқтисодий процессуал кодекси.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2025 йил 23 июнь кунги 13-сонли “Иқтисодий судлар томонидан “Тўловга қобилиятсизлик



тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни нормаларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги Қарори .



TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Jasurbek G'ofur o'g'li Saidmusayev

Sarvon Universiteti

“Huquqiy fanlar” kafedrası katta o'qituvchisi

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ichki bozorni himoya qilish davlatning iqtisodiyotga ta'sirining eng muhim sohalaridan biridir. O'zbekistonning mudofaa qobiliyati bilan bir qatorda tovarlarning raqobatbardoshligiga ega bo'lish muhimdir. Ushbu maqsadga erishish uchun mamlakat ichida kuchli sanoat bazasini yaratish, huquqiy infratuzilmani vujudga keltirish, xorijiy davlatlar iqtisodiyoti bilan mustahkam huquqiy aloqalarni o'rnatish, sanoatning samarali sohalarini xorijiy kompaniyalarning insofsiz raqobatidan himoya qilish talab etiladi. Bunday himoya vositalaridan biri tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda tovarlarning ichki bozorini himoya qilish choralari hisoblanadi. Ushbu mexanizmدا O'zbekiston hukumati tomonidan joriy etilgan antidemping, kompensatsiya va maxsus himoya choralari asosiy rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar. Valyuta nazorati, soliq nazorati, bojxona nazorati, demping, antidemping, tartibga solish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ichki bozorni himoya qilish choralari, ayni paytda O'zbekiston tashqi savdo siyosatining muzokaralar manbai hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda davlat alohida o'rin tutadi. Aynan tashqi iqtisodiy faoliyatni yuqori sifatli boshqarish O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini zamonaviy tartibga solishning asosiy maqsadi - jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga erishishga imkon beradi. Samarali integratsiya ana shunday boshqaruvga asoslanadi. 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O'zbekiston - 2030 ” STRATEGIYASI to'g'risidagi Farmonda ham Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashqi iqtisodiy faoliyat davlatning tashqi siyosati, shuningdek milliy iqtisodiy siyosatining bir qismi sifatida qaralishi, shuning uchun u davlat tomonidan tartibga solinishi kerakligi, tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solish mexanizmi, birinchi navbatda, tashqi iqtisodiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish tizimida o'ziga xos funksiyalarni bajaradigan turli xil huquqiy vositalardan foydalanishni yangicha bosqichlariga olib chiqishni asosiy vazifa sifatida belgiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni isloh qilish sohasidagi eng birinchi qadam 26.05.2000 yildagi 77-II-son “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi Qonun bo'ldi, unga ko'ra vazirliklar tashqi iqtisodiy faoliyatda davlat monopoliyasini va davlat organlari tomonidan pul-moliyaviy nazoratni umuman saqlab qolgan holda tashqi iqtisodiy aloqalarni amalda amalga oshirish huquqini oldilar. Muayyan faoliyat



sohasida davlat boshqaruvi organlari tizimi va tuzilmasini o`rnatish davlat boshqaruvini amalga oshirish uchun birinchi va zarur qadamlardan biridir. Davlat boshqaruvi oldiga qo`yilgan maqsadlarga erishish ko`p jihatdan davlat boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligiga bog`liq bo`ladi. Liberallashtirish tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tarkibini ma`lum darajada kengaytirish imkonini berdi, garchi uning deyarli barcha ishtirokchilari noprofessional bo`lsa ham. Eksport resurslarini rivojlantirish, tashqi savdo hajmini oshirish, uning tovar tarkibini takomillashtirish va tashqi savdo operatsiyalarining tijorat samaradorligini oshirish vazifalari belgilandi. Biroq, ularning aksariyati bugungi kungacha amalga oshirilmagan. O`zbekiston iqtisodiyotidagi muhim o`zgarishlar uning davlat tomonidan tartibga solinishida ham muhim o`zgarishlarga olib keldi. Davlat tomonidan fuqarolik-huquqiy bitimlar va operatsiyalarda ishtirok etish, shuningdek iqtisodiy foyda keltiradigan boshqaruv orqali amalga oshiriladigan “fiskal boshqaruv” ni ajratib turadi.

Bojxona va tariflarni tartibga solish deganda import va eksport bojxona to`lovlarini belgilash tushuniladi. Tarifsiz choralar deganda O`zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan alohida holatlarda belgilangan miqdoriy cheklovlar, tovarlarning tashqi savdosi sohasida litsenziyalash, ayrim turdagi tovarlarni eksport qilish va import qilish uchun eksklyuziv huquq berish va maxsus himoya, antidemping va kompensatsiya choralari tushuniladi. Ichki tovar bozorida raqobat muhitining yomonlashishi ushbu sanoat uchun ham, umuman davlat uchun ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin va shuning uchun chora-tadbirlarni qo`llash maqsadga muvofiq emas. Bunday holda, O`zbekiston hukumati maxsus himoya vositalaridan foydalanmaslik to`g`risida qaror qabul qilishi mumkin, antidemping va kompensatsiya choralari, agar ularning joriy etilishi qonun hujjatlarida belgilangan mezon va tartiblarga javob bersa ham. Bunday qaror tegishli ravishda rag`batlantirilishi kerak. Agar bunday qarorning shartlari o`zgargan bo`lsa, uni qayta ko`rib chiqish mumkin. Hozirgi vaqtda ekspert darajasidagi ba`zi ko`p tomonlama muzokaralarda ichki bozorni himoya qilish tizimini yo`q qilish g`oyalari bildirilmoqda, chunki uning o`rnini raqobatbardosh siyosatni tartibga solish tizimi egallashi mumkin. Bu mutlaqo to`g`ri emasdek tuyuladi. Birinchidan, tashqi iqtisodiy soha har doim O`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi. Ikkinchidan, ushbu xatti-harakatlarni o`tkazish choralari ko`rish vakolati berilgan taqdirda, tashkiliy tartibda qiyinchiliklar yuzaga keladi, chunki eng qisqa vaqt ichida tegishli malakaga ega xodimlar sonini yaratish kerak bo`ladi, buni qilish oson bo`lmaydi. Tovarlarning tashqi savdosini tartibga solish maqsadida import va eksport bojxona bojlari belgilanadi. Ular, shu jumladan, Respublikaning ichki bozorini himoya qilish va iqtisodiyotdagi progressiv tarkibiy o`zgarishlarni rag`batlantirish uchun o`rnatiladi. Qonun hujjatlarida belgilangan hollarda tovarlarning tashqi savdosini tarifsiz tartibga solish amalga oshirilishi mumkin. O`zbekiston hukumati tomonidan istisno hollarda cheklovlarni belgilashi mumkin. Ammo bu muddati olti oydan oshib ketmasigi kerak. Shuni ham ta`kidlash mumkinki, xalqaro tashkilotlar va uyushmalar doirasida Dempingga qarshi tartibga solish raqobat orqali tartibga solinadi. Bunday holda, tartibga solish asoslari xalqaro kelishuv darajasida



belgilanadi va davlatning milliy organlari ushbu shartnomalarni imzolagan davlatlarning rezidentlariga nisbatan davlat majburlash choralari qoʻllaydilar.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish manbalari orqali quyidagi holatlarni ajratib koʻrsatishimiz mumkin: antidemping siyosati har qanday mahsulot ishlab chiqaruvchilarni himoya qiladi, raqobatbardoshlik esa isteʼmolchilarni himoya qiladi. Boshqacha qilib aytganda, antidemping choralari va davlat tomonidan raqobat toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini buzganlarga nisbatan qoʻllaniladigan choralar oʻrtasida baʼzi oʻxshashliklar boʻlishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.1 Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi / / qonun hujjatlari maʼlumotlari Milliy bazasi, 09.02.2021 yil., № 03/21/671/0093.

1.2 Oʻzbekiston Respublikasining 02.02.2022-yildagi Bojxona kodeksi //qonun hujjatlari maʼlumotlari Milliy bazasi 02.02.2022., № 03/22/748/0086.

1.3 Oʻzbekiston Respublikasining 06.05.2022-yildagi Soliq kodeksi //qonun hujjatlari maʼlumotlari Milliy bazasi 06.05.2022., № 03/22/767/0386.

1.4 Oʻzbekiston Respublikasining 14.03.2022 yildagi Raqobat toʻgʻrisidagi Qonuni //qonun hujjatlari maʼlumotlari Milliy bazasi 14.03.2022., № 03/22/759/0213.

1.5 Oʻzbekiston Respublikasining 21.04.2021 yildagi Tashqi iqtisodiy faoliyat toʻgʻrisidagi Qonuni //qonun hujjatlari maʼlumotlari Milliy bazasi 21.04.2021., № 03/21/683/0375.

1.6 Oʻzbekiston Respublikasining 07.02.2019 yildagi Xalqaro shartnomalar toʻgʻrisidagi Qonuni //qonun hujjatlari maʼlumotlari Milliy bazasi 07.02.2019., № 03/19/518/2589.

1.7 Oʻzbekiston Respublikasining 18.02.2020 yildagi Maxsus iqtisodiy zonalar toʻgʻrisidagi Qonuni //qonun hujjatlari maʼlumotlari Milliy bazasi 18.02.2020., № 03/20/604/0175.

2.1 Administrativno-pravovoe regulirovanie v sfere ekonomicheskix otnosheniy // Akademicheskij pravovoy universitet pri institute gosudarstva i prava Rossiyskoy akademii nauk // 2019. В 565.;

2.2 Bakaeva T.R. Проблемы правового регулировании таможенно-тарифных otnosheniy // Yurist, 2019. В 470.

2.3 Viner J. Gosudarstvennoe regulirovanie vneshneekonomicheskoy deyatelʼnosti 2016. В 170.



VOYAGA ETMAGANLARGA TERGOV JARAYONIDA EHTIYOT CHORASINI QULLASH ASOSLARI VA AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR

Valijon Sherzodov

“Huquqni muhofaza qilish akademiyasi”

Magistranti

Anotatssiya: Ushbu maqolada voyaga yetmagan gumon qilinuvchi (ayblanuvchiga) nisbatan ehtiyot chorasini tanlashning asosiy muammoli savollari ko'rib chiqilmoqda. Ushbu ehtiyot chorasiga aloqador muammolar bilan shug'ullangan mualiflarning turli nuqtai nazarlarida tahlil qilinadi, voyaga etmaganlarga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining “eksklyuzivligi” masalasi ko'rib chiqiladi va tegishli xulosalar asoslanadi. Ehtiyot choralarini amalga oshirish hamda voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishlarini oldini olish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: ehtiyot chorasi, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, voyaga yetmagan ayblanuvchi, qamoqqa olish, huquqbuzarlik.

Voyaga etmagan shaxslar jinoyat huquqi va jinoyat-protsessual huquqda alohida subyekt sifatida e'tirof etilgan bo'lib, ularning jinoiy javobgarligi, jazoni qo'llash tartibi hamda tergov jarayonida protsessual huquqlari boshqa toifadagi shaxslardan tubdan farq qiladi. Chunki voyaga etmagan shaxs psixologik va ijtimoiy jihatdan yetuk emas, huquqiy bilimlari cheklangan, o'z huquq va manfaatlarini to'laqonli himoya qila olmaydi. Shu sababdan, ularga nisbatan ehtiyot chorasini qo'llash masalasi alohida ehtiyotkorlik va qonuniylik tamoyillari asosida hal etilishi lozim. So'ngi yillardagi olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining asosiga qonun ustuvorligi, fuqarolarning qonun oldida tengligi, insonparvarlik, adolatlilik va aybsizlik prezumpsiyasi kabi konstitutsiyaviy prinsiplar poydevor qilib qo'yilgan. Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha rivojlanish tarraqiyot strategiyasining eng asosiy masalalaridan biridir. Muhtaram Prezidentimiz yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev voyaga yetmaganlar yurtimiz kelajagi bo'lmish yoshlarimiz uchun ularning rivojlanishlari sifatli bilim va ko'nikmalar olishlari, kelgusidagi to'g'ri halol va pokiza hayotlari uchun juda ham katta e'tibor berib katta shart sharoitlar yaratib bermoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emasligi qayd etilgan. Ushbu konstitutsiyaviy qoida umume'tirof etilgan xalqaro huquqiy standartlarda ham aks ettirilganligini tan olish kerak. Xususan, 1966 yilda qabul qilingan «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt»ning 9-moddasi 3-qismiga asosan «Jinoiy ayblovlari bilan



qamalgan yoki ushlangan har bir shaxs sudya yoki qonun bo'yicha sud hokimiyatini amalga oshirish huquqi bo'lgan boshqa mansabdor shaxs huzuriga keltirilishi va ayblanayotgan shaxs oqilona muddat ichida ishi sudda ko'rilishi yoki ozod qilinishini talab qilish huquqiga egaligi qayd etilgan. Shu bilan birga, muayyan hollarda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qonun xujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda muayyan protsessual majburlov va ehtiyot choralarini qo'llanilishi mumkin.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini sodir etilgan jinoyat uchun jazo emas, balki uning asosiy vazifasi - huquqbuzarliklarning oldini olish, chunki ular jinoyat sodir etganlik yoki protsessual qoidani buzganlik uchun emas, balki ayblanuvchi (gumon qilinuvchi) protsessual majburiyatlarni bajarishini ta'minlash va u yangi jinoyatlar sodir etishi, tergov va suddan yashirinishi, ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilishga urinishlarining oldini olish uchun qo'llaniladi. Yuqorida ko'rsatilganlar bilan bir qatorda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi, alohida hollarda, uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qo'llanilishi mumkin. Alohida hollarda ushbu ehtiyot chorasi yuqoridagi talablardan istisno tariqasida ham qo'llanilishi mumkin:

1. Ayblanuvchi, sudlanuvchi tergov va suddan yashiringanida;
2. Ushlab turilgan gumon qilinuvchining shaxsi aniqlanmaganida;
3. Ilgari qo'llanilgan ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan buzilganida;
4. Ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi, sudlanuvchi O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lmaganida;
5. Jinoyat qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash davrida sodir etilganida, deb ko'rsatilgan. Qonuniylik tergov organlaridan qonun ularning zimmasiga yuklagan huquq va majburiyatlarni aniq bajarishlarini talab qiladi. Protsessual huquq va majburiyatlarning uzviy aloqadorligi - tergovchi huquqiy maqomining o'ziga xos jihatidir. Masalan, JPKga binoan tergovchi asoslar bo'lgan taqdirda jinoyat ishini qo'zg'atish huquqiga ega. Shu bilan birga, bu uning bevosita majburiyati hamdir. Ushbu majburiyatni bajarmaslik qonuniylikni va xizmat burchini buzish deb baholanadi.

Voyaga etmaganlarga nisbatan ehtiyot choralarini qo'llash masalasi huquqiy, psixologik va ijtimoiy jihatdan murakkab jarayondir. Shu sababdan, amaldagi qonun normalarini takomillashtirish, amaliyotda ularga nisbatan yumshoqroq va tarbiyaviy ta'sirga ega ehtiyot choralarini qo'llashni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa voyaga etmagan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan birga, ularni jamiyatga qayta moslashtirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, qamoqqa olishning «asoslanganligi» shunchalar keng tushunchaki, uning ortida shaxsning O'zbekiston Respublikasining fuqarosi ekanligidan tortib, jinoyatchining xonadonida akvariumda baliqlar qarovsiz qolganligi va ularni boqishga odam yo'qligi holatigacha yetkazib borish mumkin. Shu bilan birga sud tomonidan shaxsni noqonuniy qamoqqa olinganligi yuzasidan qilgan shikoyati faqat «qonuniylik» nuqtai-nazaridan ko'rib chiqilishi va qonunda joriy qilingan qoidalarga asoslanishi



kerak, deb hisoblaymiz. Ya'ni, agar qamoqqa olish to'g'risidagi ajrimni tekshirish jarayonida qamoqqa olish ehtiyot chorasi JPK talablariga zid ravishda, noqonuniy qo'llanilgan bo'lsa shaxsni ozod qilish kerak, agarda JPK talablariga javob bersa, qonuniy ravishda iltimos kiritilgan bo'lsa, shaxsni qamoqqa olishning «maqsadga nomuvofiqligi» yoki «asoslanmaganligi» haqidagi vajlar inobatga olinmasligi lozim.

Xulosa o'rnida, Xalqaro huquqiy normalar, xususan, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, Pekin qoidalari va ayrim rivojlangan davlatlar tajribasi (Germaniya, Fransiya, Kanada) shuni ko'rsatadiki, voyaga etmaganlarga nisbatan qamoqqa olish chorasidan faqatgina "oxirgi instansiya" sifatida va eng qisqa muddatga foydalanish maqsadga muvofiqdir. Amaliyotda esa ularga nisbatan tarbiyaviy, ijtimoiy reabilitatsiya va probatsiya choralari keng qo'llash yuqori samara bergan. O'zbekiston amaliyotida ham ushbu xalqaro tajribani hisobga olgan holda: qamoqqa olishni keskin cheklash, psixologik-pedagogik ekspertizani majburiy tartibga kiritish, probatsiya va ijtimoiy nazorat tizimini rivojlantirish, mahalla va ta'lim muassasalarini jarayonga kengroq jalb etish, maxsus tayyorlangan advokatlar orqali sifatli huquqiy yordamni ta'minlash zarur. Shunday yondashuv voyaga etmaganlarni insonparvarlik ruhida himoya qilish, ularning huquqlarini xalqaro standartlarga mos ravishda kafolatlash hamda jamiyatga qayta moslashuvini ta'minlash imkonini beradi. Natijada nafaqat jinoyatchilikning oldi olinadi, balki yosh avlodning to'laqonli huquqiy tarbiyasi va ijtimoiylashuvi ham ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam. -Toshkent, 2004. - B.40.
3. "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni// O'lim jazosini bekor qilish hamda qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazishga oid normativ - huquqiy hujjatlar to'plami". -T., 2007. -B.18-34.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020 y., 03/20/603/0071-son.
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.07.2018 y., 03/18/487/1569-son.
6. O'zbekiston Respublikasining —Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to'g'risidagi Qonuni //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019 y., 03/19/567/3737-son. 70



VOYAGA ETMAGANLARGA TERGOV JARAYONIDA EXTIYOT CHORASINI QULLASH ASOSLARI VA AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR

Valijon Sherzodov

“Huquqni muhofaza qilish akademiyasi”

Magistranti

Anotatssiya: Mazkur maqolada voyaga etmagan shaxslarga nisbatan jinoyat protsessi doirasida ehtiyot choralarini qo‘llashning huquqiy asoslari, ularning qo‘llanish shartlari hamda tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro standartlar hamda milliy qonunchilik asosida voyaga yetmaganlarning huquqlarini ta‘minlash mexanizmlari o‘rganilib, mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: voyaga etmaganlar, ehtiyot chorasi, jinoyat protsessi, tergov, inson huquqlari, qamoqqa olish, kafolat, nazorat.

Voyaga etmagan shaxslarning jinoyat protsessidagi huquqiy maqomi zamonaviy huquqiy tizimlarda alohida e‘tibor talab qiladigan masalalardan biridir. Voyaga etmaganlar nafaqat jinoyat sodir etgan shaxs sifatida, balki ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar sifatida ham qaraladi. Shu sababli ularga nisbatan qo‘llaniladigan jinoyat-protsessual choralar, xususan ehtiyot choralarini qo‘llash masalasi insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslanishi lozim. Jinoyat protsessida ehtiyot chorasi gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining tergovdan yashirib ketishini, jinoyat faoliyatini davom ettirishini yoki dalillarni yo‘q qilishini oldini olish maqsadida qo‘llaniladigan muhim protsessual institut hisoblanadi. Biroq voyaga etmagan shaxslarga nisbatan ushbu choralarni qo‘llashda ularning yosh xususiyatlari, psixologik holati va ijtimoiy muhitini hisobga olish zarur. Xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi, shuningdek Voyaga etmaganlar adliyasi bo‘yicha Pekin qoidalari voyaga etmaganlarga nisbatan qamoqqa olish chorasi faqat istisno tariqasida va eng qisqa muddatga qo‘llanishi lozimligini belgilaydi.

Voyaga etmaganlarga nisbatan ehtiyot choralarini qo‘llashning o‘ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyan bo‘ladi. Voyaga etmaganlarga ehtiyot choralarini qo‘llashda quyidagi omillar inobatga olinadi: 1. Yosh xususiyati - Voyaga etmagan shaxsning yoshiga qarab uning psixologik holati, ijtimoiy rivojlanishi va tarbiyaviy muhitiga baho beriladi. 2. Tarbiyaviy muhit - Voyaga etmagan shaxsning oilaviy sharoiti, ota-onasi yoki qonuniy vakillari mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega. 3. Jinoyatning og‘irlik darajasi - Ehtiyot chorasi tanlashda sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi ham hisobga olinadi. 4. Shaxsning xulq-atvori - Voyaga etmagan shaxsning oldingi xulq-atvori, o‘qish yoki ishlash joyidagi tavsifnomasi ham muhim rol o‘ynaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, voyaga etmaganlarga nisbatan



qamoqqa olish ehtiyot chorasi eng oxirgi chora sifatida qo'llanishi lozim. Bu prinsip xalqaro huquq normalarida ham mustahkamlangan. JPKning 242-moddasiga asosan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish Jinoyat kodeksida uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun Jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat protsessida ehtiyot chorasi shaxsning protsessual majburiyatlarini ta'minlashga qaratilgan majburlov chorasi hisoblanadi. Ehtiyot choralarining asosiy vazifasi jinoyat protsessining normal kechishini ta'minlashdan iborat. Voyaga etmaganlarga nisbatan ehtiyot choralarini qo'llashning nazariy asoslari quyidagi tamoyillarga tayanadi: **1. Insonparvarlik tamoyili** bu orqali voyaga etmagan shaxslarning ruhiy va jismoniy rivojlanish darajasi kattalardan farq qiladi. Shu sababli ularga nisbatan qo'llaniladigan choralar tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'lishi zarur. **2. Minimal majburlov tamoyili** bu orqali voyaga etmaganlarga nisbatan imkon qadar eng yengil ehtiyot chorasi qo'llanishi kerak. **3. Individual yondashuv tamoyili** har bir voyaga etmagan shaxsning shaxsiy xususiyatlari, oilaviy sharoiti, tarbiyaviy muhiti va ijtimoiy holati alohida o'rganilishi zarur. Voyaga etmagan shaxslarga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo'llanilganda quyidagi omillar hisobga olinishi zarur: sodir etilgan jinoyatning og'irlik darajasi; voyaga etmagan shaxsning ilgari sudlanganligi; uning oilaviy va ijtimoiy sharoiti; tergovdan yashirib ketish ehtimoli. Shuningdek, qamoqqa olish chorasi qo'llanilganda voyaga etmaganlar kattalardan alohida saqlanishi lozim. Xorijiy davlatlar tajribasi voyaga etmaganlar huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. **Germaniya tajribasi** tahlil qiladigan bo'lsak, Germaniyada voyaga etmaganlar jinoyat ishlari bo'yicha maxsus sudlar faoliyat yuritadi. Qamoqqa olish chorasi faqat istisno hollarda qo'llaniladi. **Yaponiya tajribasi** shuni bizga ko'rsatadiki, Yaponiyada voyaga etmaganlar ishlari maxsus oilaviy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi. **Fransiya tajribasida** esa Fransiyada voyaga etmaganlar bilan ishlashda ijtimoiy xizmatlar faol ishtirok etadi.

Xulosa o'rnida, voyaga etmaganlarga nisbatan ehtiyot choralarini qo'llash jinoyat protsessining muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada insonparvarlik tamoyillari ustuvor bo'lishi lozim. Voyaga etmagan shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida ehtiyot choralarini qo'llashda individual yondashuv, minimal majburlov va tarbiyaviy ta'sir choralariga ustuvor ahamiyat berilishi zarur. Mazkur sohada qonunchilikni takomillashtirish hamda xalqaro tajribani joriy etish orqali voyaga etmaganlar huquqlarini yanada samarali himoya qilish mumkin. Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: Voyaga etmaganlarga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo'llanishini maksimal darajada cheklash. Jinoyat-protsessual kodeksida alternativ ehtiyot choralarining qo'llanishini kengaytirish. Voyaga etmaganlar bilan ishlovchi tergovchilar uchun maxsus tayyorgarlik tizimini joriy etish. Voyaga etmaganlar adliyasi institutini rivojlantirish. Voyaga etmaganlarga nisbatan ehtiyot choralarini qo'llashda sud nazoratini kuchaytirish orqali erishimiz



mumkin.

ishlari chogʻida Sitnyakovskiy dastlabki topilma sifatida oltita kumush tangadan iborat majmuani qoʻlga kiritgan. U oʻz tadqiqotlari natijalarini 1896-yil 11-dekabrda Turkiston havaskor arxeologlar toʻgaragi aʼzolariga taqdim etgan hamda mazkur hisobot oʻsha yilning oʻzidayoq nashr qilingan.

Buxoro vohasidagi arxeologik tadqiqotlar XX asr boshlarida ham davom ettirildi. Xususan, 1903 yilda Karnegi instituti vakili, geolog Rafael Pumpelli boshchiligidagi Amerika ekspeditsiyasi Poykent xarobalarini oʻrganish ishlarini olib bordi. Mazkur yodgorlikdagi dastlabki kuzatuvlariga tayangan holda, Pumpelli shaharning mudofaa devorlari qoldiqlari hamda qazishmalar davomida aniqlangan sopol quvurlarning dastlabki vazifasi yuzasidan ayrim ilmiy farazlarni ilgari surgan.

Buxoro amirligining poytaxti boʻlgan hamda 1873-yildan 1920-yilgi inqilobiy voqealargacha Rossiya imperiyasi protektorati ostida qolgan, keyinchalik Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarkibiga oʻtgan va 1924-yilda Oʻzbek SSR tarkibiga kiritilgan Buxoro uzoq vaqt davomida tarixchilar va arxeologlarning keng ilmiy doirasi uchun deyarli yopiq hudud boʻlib kelgan. Oʻrta asr mualliflari asarlarida Buxoro haqida nisbatan boy maʼlumotlar saqlanib qolgan boʻlishiga qaramay, shaharning eng qadimgi, ibtidoiy tarixiga oid maʼlumotlar ilmiy muomalada deyarli mavjud emas edi.

Oʻrta asr mualliflari, eng avvalo, Buxorolik mashhur tarixchi Muhammad Narshaxiy tomonidan keltirilgan shaharning qadimiyligi, yaʼni uning uch ming yildan ortiq tarixga egaligi haqidagi maʼlumotlar yarim afsonaviy xususiyat kasb etadi. Mazkur rivoyatlar, ehtimol, undan-da avvalgi yarim afsonaviy yozma anʼanalar yoki ogʻzaki xalq rivoyatlariga tayangan boʻlib, oʻsha davrning bilish mezonlari nuqtayi nazaridan tushunarli ravishda, qatʼiy xronologik asoslashdan mahrum edi.

Aynan shu sababli, amirlik qulaganidan soʻng, 1920-yil oktabr oyida Buxoroga akademik V.V. Bartold, professor E.K. Betger va samarqandlik arxeolog V.L. Vyatkin boshchiligidagi nufuzli sharqshunos olimlardan iborat ilmiy komissiya tashrif buyurdi. Mazkur komissiya ilk bor arxeologik yodgorliklarni tizimli ravishda roʻyxatga olish ishlarini yoʻlga qoʻydi, ularni muhofaza qilish choralarini joriy etdi hamda sharq qoʻlyozmalarini toʻplash va tavsiflashga ixtisoslashgan kutubxonaga asos soldi.

1925 yildayoq Buxoroda Buxoro qadimiy yodgorliklari va sanʼatini oʻrganish qoʻmitasi — BUXKOMSTARIS tashkil etildi. Keyinchalik ushbu qoʻmitaga taniqli arxeolog V.A. Shishkin rahbarlik qildi. 1926-yilda esa arxeolog V.L. Vyatkin Markaziy Osiyoning eng yuksak meʼmoriy yodgorliklaridan biri Somoniylar sulolaviy maqbarasida arxeologik qazishmalar olib bordi.

Buxoroning tarixiy merosini ilmiy jihatdan oʻrganishdagi muhim bosqichlardan biri V.A. Shishkinning 1936-yilda shaharning meʼmoriy yodgorliklariga bagʻishlangan monografiyasining nashr etilishi boʻldi. Mazkur tadqiqot koʻp yillik dala kuzatuvlari, Buxoro tarixiy topografiyasiga oid maʼlumotlar hamda yozma manbalarni tanqidiy tahlil etish asosida yaratilgan edi. Bundan biroz avvalroq, 1934–1935 yillarda ayni shu olim Buxorodagi eng qadimiy masjidlardan biri — XII asrga oid Magoki Attorida, obidani restavratsiya qilish ishlari bilan



bog‘liq holda dastlabki arxeologik qazishmalarni amalga oshirdi. Ushbu tadqiqotlar nafaqat inshootning sanasini aniqlashtirish, balki bu hududda 13 metr chuqurlikkacha yetgan madaniy qatlamlarning stratigrafiyasi va ketma-ketligini belgilash imkonini berdi. Shuningdek, ular Janubiy Rabodning mazkur qismida shahar taraqqiyotining dastlabki xronologik ufqini, ya‘ni milodiy davr bo‘lag‘asiga borib taqaladigan bosqichlarni aniqlashga qaratilgan ilk urinish sifatida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Buxoro o‘tmishini o‘rganishdagi navbatdagi muhim siljish 1940–1941 yillarda SSSR Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi, sharqshunos M.S. Andreyev rahbarligida o‘tkazilgan tarixiy-etnografik ekspeditsiya bilan bog‘liq bo‘ldi. Mazkur ekspeditsiya O‘rta Osiyo davlat universiteti, O‘zbek SSR San‘at muzeyi hamda Samarqand va Buxoro muzeylari hamkorligida tashkil etildi. Ekspeditsiya ishtirokchilari M.S. Andreyev, O.D. Chexovich, L.I. Rempel, M.S. Yusupov va ayniqsa urushdan keyingi yillarda O.A. Suxareva tomonidan kech feodal davr Buxorosining ijtimoiy va moddiy hayotining deyarli barcha jihatlarini yorituvchi nihoyatda boy va g‘oyat qimmatli tarixiy-etnografik materiallar to‘plandi.

Keyingi o‘n yilliklar davomida ekspeditsiya tadqiqotchilarining natijalari ko‘plab hisobot va monografiyalarda o‘z ifodasini topdi. Ularda shaharning tarixiy topografiyasi, me‘morchiligi, ma‘muriy tuzilmasi, moliyaviy tizimi, sud-huquq institutlari, harbiy ishi, hunarmandchiligi, turar joy mavzolari va aholisi haqidagi bevosita guvohlarning ma‘lumotlari qayd etildi. Ushbu materiallar alohida ilmiy qimmatga ega, zero ular Buxoroning Markaziy Osiyodagi kundalik turmushi va shahar muhitida qadimgi hamda o‘rta asr belgilarini yaqqol saqlab qolgan yagona shahar sifatidagi qiyofasini yoritib beradi.

Shunga qaramay, XX asrning ikkinchi yarmida Buxoroda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qazishma ishlari uchun ochiq maydonlarning yo‘qligi sababli sezilarli darajada qiyinlashgan edi. Bu holat shaharning o‘zining ko‘p ming yillik tarixi davomida joylashuv o‘rnini o‘zgartirmagani va natijada eski shahar hududining deyarli to‘liq zamonaviy turar joylar bilan qoplanib ketgani bilan izohlanadi. Ana shunday jiddiy cheklovlarga qaramay, 1969–1980-yillarda Tarix va arxeologiya instituti, keyinchalik 1970-yilda Fanlar akademiyasining Arxeologiya institutiga aylantirilgan muassasa tomonidan Buxoro vohasi poytaxtida ilk bor keng ko‘lamli stratigrafik va planigrafik arxeologik tadqiqotlar amalga oshirildi.

Mazkur ishlarning umumiy ilmiy rahbarligi akademik Ya.G‘. G‘ulomov, tarix fanlari nomzodi I.A. Ahrarov hamda tarix fanlari doktori A.R. Muhamedjanov tomonidan olib borildi. Ekspeditsiya natijalariga arxeologlar D.K. Mirzaahmedov, Sh.T. Adilov, K. Abdullayev va P. Valiyev salmoqli hissa qo‘shdilar. Bundan tashqari, shaharning me‘moriy-arxeologik jihatdan o‘rganilishida tashqi muassasalar mutaxassislari ham ishtirok etdilar. Jumladan, Toshkent Maxsus ilmiy restavratsiya va loyihalash ustaxonasi (SNRPM) xodimi E.G. Nekrasova ham ushbu ishlarda faol qatnashdi.

Umuman olganda, yuqorida zikr etilgan barcha tadqiqotlar Buxoroning tarixiy topografiyasi, arxeologiyasi va moddiy madaniyatini kompleks ravishda o‘rganish uchun mustahkam ilmiy zamin yaratdi. Shu bilan birga, ular shahar tarixiy



taraqqiyotining eng qadimgi bosqichlarini yanada asosli va dalillarga tayangan holda ilmiy talqin etish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ситняковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части долины Зеравшана // Известия Туркестанского отдела Императорского Русского географического общества. Т. I. 1899. Вып. II. – Ташкент, 1900. – С. 121–298.
2. Зимин Л.А. Развалины старого Пейкенда. – Ташкент: Тип. Штаба Туркест. воен. окр., 1913. – 31 с.
3. Умняков И.И. К вопросу об исторической топографии средневековой Бухары // Сборник Туркестанского Восточного института в честь проф. Э.А.Шмидта. – Ташкент, 1923. – С. 148–157.
4. Шишкин В.А. Археологические работы 1937 года в западной части Бухарского оазиса. – Ташкент, 1940. – 50 с.
5. Ремпель Л.И. Из истории градостроительства на Востоке (материалы по планировке старой Бухары) // Искусство зодчих Узбекистана. – Ташкент: Изд. Академии наук Узбекской ССР, 1962. – С. 211–266.
6. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. – Москва.: Наука, 1976. – 363 с.
7. Мухамеджанов А. Результаты археологических исследований на территории города Бухары // Общественные науки в Узбекистане. –Ташкент: Фан, 1984. -№ 1.
8. Мирзаахмедов Д. К. К исторической топографии Арка Бухары // Я. Г. Гулямов и развитие исторических наук в Узбекистане. ТД посв. 80-летию акад. АН Узб. Я. Г. Гулямова. Ташкент, 1988. – С. 57–58.
9. Некрасова Е.Г. К истории сложения стен арка Бухары (новые археологические данные) // Из истории культурного наследия Бухары. – Ташкент: «Узбекистан», 1990. – С.15–27.



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

MATNNI RAQAMLI MUHITGA KO'CHIRISH FENOMENI: FILOLOGIK
PERSPEKTIVA VA SWOT TAHLILI

Aliqulova Mohinur O'ktam qizi
Toshkent Amaliy fanlar universiteti
Xorijiy til va adabiyoti o'qituvchisi
<https://orcid.org/0009-0009-8659-6346>

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot raqamlashtirish tushunchasini filologik nuqtai nazardan o'rganadi va uning zamonaviy matnshunoslikdagi nazariy va amaliy ahamiyatini yoritadi. Raqamlashtirish faqat qo'lyozma yoki bosma nashrlarning texnik nusxalash jarayoni sifatida emas, balki matnlarni funksional raqamli muhitga ko'chirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Filologik raqamlashtirish semantik kodlash, talqin qatlamlari va hisoblash interaktivligini o'z ichiga oladi, bu esa oddiy elektron nusxalardan, masalan, PDF skanlar yoki OCR orqali olingan matnlardan aniq farqlanadi. Xalqaro standartlar (TEI), nazariy modellar (Pierazzo, Sahle) va amaliy loyihalar (Chekhov Digital) asosida tadqiqot raqamlashtirish orqali matnda dinamik kollatsiya, entitiylarni tanish, semantik qidiruv va qayta ishlanadigan ilmiy nashrlarni yaratish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Maxsus e'tibor O'zbekiston va postsovet filologiyasi uchun qaratilgan: bu hududlarda turkiy adabiy merosni saqlash va tahlil qilish uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Tadqiqot raqamli gumanitar fanlarda paradigmatik o'zgarishlarni ta'kidlaydi va mashina tomonidan o'qiy oladigan, interaktiv va funksional ilmiy nashrlarni yaratish zarurligini himoya qiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli filologiya; Ilmiy raqamlashtirish; Funksional raqamli muhit; Semantik belgilash; TEI; Raqamli ilmiy nashrlar.

Raqamli davr filologik tadqiqotlarni tubdan o'zgartirdi. An'anaviy filologiya qo'lyozmalar, bosma nashrlar va statik arxivlarga tayangan bo'lsa, bugungi kunda hisoblash vositalari matnga ilgari kuzatilmagan tahliliy imkoniyatlar beradi. Shu sababli, raqamlashtirishni faqat texnik nusxalash sifatida emas, balki matni funksional raqamli muhitga ko'chirish fenomeni sifatida talqin qilish lozim. Bu muhitda matnning tuzilishi, ma'nosi va talqini mashina tomonidan qayta ishlanadi, qidiriladi va interaktiv tarzda kengaytiriladi.

An'anaviy filologiyada tahririy qarorlar ko'pincha izohlar yoki variant apparatlarida yashirin bo'lgan; matnlarni solishtirish qo'lda amalga oshirilgan va xatolarga moyil bo'lgan; semantik munosabatlar faqat o'quvchining ongida mavjud edi. Filologik raqamlashtirish ushbu cheklovlarni bartaraf etadi. Pierazzo (2015) ta'kidlaganidek, "har qanday elektron matn — bu talqindir", va transkripsiya "bir semiotik tizimdan boshqasiga o'tish jarayonidagi tarjima amallari ketma-ketligidir". TEI kabi standartlar asosida kodlangan matnlar tahririy qarorlarni ochiq va qayta tekshiriladigan shaklda taqdim etadi, bu esa bosma nashrlarda imkonsiz edi.



Shu bilan birga, oddiy elektron nusxalar (PDF skanlar yoki OCR matnlar) passiv ko‘rinishda qoladi va faqat kalit so‘z bo‘yicha qidiruv imkonini beradi, semantik chuqurlikka ega emas va variantlarni vizualizatsiya qilmaydi. Filologik raqamlashtirish esa ko‘p qatlamli, jarayonli va interaktiv nashr yaratadi, bu nashr dinamik kollatsiya, ko‘p parametrlil qidiruv va bog‘langan izohlarni saqlab qoladi.

Ushbu paradigmatic o‘zgarish, ayniqsa, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo hududlari uchun dolzarbdir. Milliy adabiy korpuslar (Alisher Navoiy, Bobur va zamonaviy o‘zbek adabiyoti) hali to‘liq filologik raqamlashtirilmagan. Oddiy skan yoki OCR nusxalarining ko‘pligi ilmiy tahlil imkoniyatlarini cheklaydi va semantik belgilashning yo‘qligi madaniy merosni “jonsiz ma’lumot”ga aylantirishi mumkin. Shu bois, tadqiqot ikki asosiy maqsadni ko‘zlaydi: raqamlashtirishning filologik mazmunini nazariy jihatdan asoslash va uni oddiy elektron nusxadan aniq farqlash.

Bu o‘rinda albatta filologik raqamlashtirish SWOT tahlilini ko‘rib chiqishimiz lozim.

1-jadval

Filologik raqamlashtirish

SWOT elementlari	Tavsif
<p>Kuchli tomonlari (Strengths)</p>	<ul style="list-style-type: none"> - Matnni ko‘p qatlamli va semantik jihatdan belgilash imkoniyati. - Variantlarni avtomatik solishtirish va interaktiv qidiruv imkoniyatlari. - TEI va boshqa xalqaro standartlar asosida ilmiy tahlil uchun yuqori moslashuvchanlik. - Ilmiy hamkorlik va platforma asosida tadqiqot olib borish imkoniyati. - Matnning ontologik maqomi – statik obyektidan dinamik bilimlar tizimiga aylanishi.
<p>Zaif tomonlari (Weaknesses)</p>	<ul style="list-style-type: none"> - Mahalliy mutaxassislar yetishmasligi (filologlar + IT integratsiyasi). - O‘zbek adabiy merosining ko‘pligi va turli variantlarda bo‘lishi, raqamlashtirish jarayonini murakkablashtiradi. - Mavjud raqamli resurslarning katta qismi hali faqat skan/OCR shaklida. - Yirik loyihalar uchun texnologik va moliyaviy resurslar cheklangan.
<p>Imkoniyatlar (Opportunities)</p>	<ul style="list-style-type: none"> - Milliy adabiy merosni xalqaro standartlarga mos ravishda saqlash va tahlil qilish. - Sun‘iy intellekt va mashina o‘rganish texnologiyalari yordamida intertekstual bog‘lanishlarni avtomatik aniqlash. - Ilmiy hamkorlikni kengaytirish va global digital humanities tarmog‘iga qo‘shilish. - Filologik tadqiqot metodlarini modernizatsiya qilish va yangi paradigmalarga moslashtirish.



SWOT elementlari	Tavsif
Xavf va tahdidlar (Threats)	<ul style="list-style-type: none">- Texnik raqamlashtirishga cheklanish va filologik yondashuvning yetarlicha joriy etilmasligi.- Milliy adabiy merosning “jonsiz ma’lumot” holatiga aylanishi (semantik belgilash yo‘qligi).- Moliyaviy va texnologik cheklovlar natijasida loyihalar to‘xtab qolishi.- Intellektual mulk va litsenziya masalalari bilan bog‘liq murakkabliklar.

1-jadvalga asosan, olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, filologik raqamlashtirishning kuchli tomonlari matn bilan ishlash sifatini tubdan o‘zgartiradi. Eng asosiy natija – matn statik obyekt sifatida qolmay, dinamik, interaktiv tizimga aylanadi. Variantlarni avtomatik solishtirish, semantik qidiruv va bog‘langan izohlar ilmiy tahlil imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Zaif tomonlar esa asosan **mutaxassislar va mavjud resurslar yetishmovchiligi** bilan bog‘liq. Shu bois, filologik raqamlashtirishni muvaffaqiyatli joriy etish uchun milliy mutaxassislar tayyorlash va texnologik infratuzilmani rivojlantirish zarur.

Imkoniyatlar qismida esa global digital humanities tajribasidan foydalanish, AI yordamida intertekstual bog‘lanishlarni aniqlash va milliy adabiy merosni xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyatlari mavjud. Bu filologik tadqiqotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xavf va tahdidlar esa **texnik va moliyaviy cheklovlar**, shuningdek, semantik belgilashning yetarli emasligi bilan bog‘liq. Agar bu tahdidlar e’tiborsiz qolsa, milliy adabiy merosning ilmiy va amaliy ahamiyati kamayishi mumkin.

Ushbu tadqiqot filologik raqamlashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganib, uni oddiy texnik nusxalashdan tubdan farqlashini ko‘rsatdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, filologik raqamlashtirish matnni statik obyekt sifatida emas, balki dinamik, interaktiv va ko‘p qatlamli tizim sifatida tashkil etadi. Semantik belgilash orqali matn ichidagi elementlar o‘zaro bog‘langan tarmoqqa aylanadi, bu esa qidiruv samaradorligini oshiradi va ilmiy tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, variantlarni avtomatik solishtirish va interaktiv platformalarda ishlash imkoniyati filologik tadqiqotlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo kontekstida esa mavjud raqamli resurslar ko‘p hollarda oddiy skan yoki OCR matnlardan iborat bo‘lib, ilmiy tahlil uchun cheklangan imkoniyatlarga ega. Shu bois, filologik raqamlashtirishni joriy etish hududiy madaniy merosni saqlash va ilmiy tadqiqotlarni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, filologik raqamlashtirish gumanitar fanlarda paradigmatic o‘zgarishlarni ta’kidlaydi va matnshunoslikda yangi ilmiy metodlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.



Filologik raqamlashtirishni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun bir nechta muhim yoʻnalishlar belgilanishi zarur. Avvalo, milliy filologik raqamlashtirish loyihalarini kengaytirish lozim. Bu orqali Oʻzbekiston va Markaziy Osiyo adabiy merosini TEI standartlari va boshqa xalqaro formatlar asosida kodlash, semantik jihatdan belgilash va interaktiv nashrlar yaratish imkoniyati oshadi. Shu bilan birga, filologlar va IT mutaxassislarini birlashtiruvchi treninglar va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi tavsiya etiladi, chunki kompleks filologik raqamlashtirish loyihalari koʻp tarmoqli mutaxassislarni talab qiladi.

Texnologik infratuzilmani rivojlantirish ham alohida eʼtibor talab qiladi. Serverlar, interaktiv platformalar va sunʼiy intellekt texnologiyalari yordamida variantlarni avtomatik solishtirish va semantik qidiruv imkoniyatlari kengaytirilishi mumkin. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, Chekhov Digital kabi global loyihalarning tajribasini oʻrganish va milliy resurslarni xalqaro digital humanities tarmogʻiga integratsiya qilish filologik tadqiqotlarning samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, ilmiy metodlarni modernizatsiya qilish zarurati mavjud. Raqamli filologiya metodlarini tadqiqot jarayoniga joriy etish, matnlarni interaktiv va mashina oʻqiy oladigan shaklga keltirish orqali ilmiy maqolalar va nashrlar sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu yoʻnalishlar amalga oshirilsa, filologik raqamlashtirish nafaqat milliy adabiy merosni saqlash, balki ilmiy tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqishda ham muhim rol oʻynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Pierazzo, E. *Digital Scholarly Editing: Theories and Practices*. Cambridge: Open Book Publishers, 2015. – 320 p.
2. Sahle, P. On the Future of Scholarly Editions. // *Literary and Linguistic Computing*, 25(3), 2010. – pp. 309–325.
3. Schreibman, S., Siemens, R., Unsworth, J. (Eds.). *A New Companion to Digital Humanities*. Wiley-Blackwell, 2016. – 550 p.
4. Text Encoding Initiative Consortium. *Guidelines for Electronic Text Encoding and Interchange (TEI) P5*. TEI-C, 2020. – 280 p.



BADIIY MATNNING LINGVISTIK TABIATINI RAQAMLI MUHITDA SAQLASH MUAMMOSI

Aliqulova Mohinur O`ktam qizi

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Xorijiy til va adabiyoti o`qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0009-8659-6346>

Annotatsiya: Ushbu maqola badiiy matnlarning lingvistik tabiatini raqamli muhitda saqlash va tahlil qilish bilan bog`liq muammolarni chuqur o`rganadi. Badiiy matn nafaqat so`zlardan iborat bo`lib, balki uning morfologik, sintaktik, semantik va stilistik qatlamlari bir-biriga bog`langan murakkab tizimni tashkil etadi. Zamonaviy filologik raqamlashtirish metodlari va TEI (Text Encoding Initiative) kabi xalqaro standartlar yordamida matnning turli qatlamlarini saqlash va qidiruvga moslashtirish jarayoni tahlil qilinadi. Maqola badiiy matnning lingvistik xususiyatlarini saqlash, polimorf variantlarni yaratish va intertekstual bog`lanishlarni kodlashdagi muammolarni ko`rsatadi. Shu bilan birga, maqola O`zbek adabiy merosida bunday raqamlashtirish imkoniyatlarini baholaydi va ilg`or metodlarni joriy etish bo`yicha takliflar beradi.

Kalit so`zlar: Badiiy matn, ko`pqatlamli tuzilish, filologik raqamlashtirish, TEI, digital humanities, semantik belgilash, intertekstual bog`lanish.

Badiiy matnning lingvistik tabiatini saqlash filologiya va lingvistika fanlarining eng murakkab vazifalaridan biridir. Matnning morfologik va sintaktik strukturalari, semantik qatlamlari, intertekstual bog`lanishlari va stilistik xususiyatlari uning lingvistik tabiati sifatida qaraladi. An`anaviy bosma shaklda matnni saqlashda bu qatlamlar faqat o`quvchi ongida shakllanadi. Shu bilan birga, matnning interaktivligi cheklangan bo`ladi va ilmiy tahlil jarayonida variantlarni solishtirish, ma`no qatlamlarini aniqlash ko`p vaqt va mehnat talab qiladi.

Raqamli filologiya va digital humanities sohasi badiiy matnni elektron shaklga ko`chirishni faqat texnik nusxa olish emas, balki uning lingvistik va semantik qatlamlarini saqlash, ularni qidiruv va tahlilga moslashtirish jarayoni sifatida talqin qiladi. Shu nuqtai nazardan, matnni raqamli muhitga ko`chirish — uning lingvistik tabiati va badiiy xususiyatlarini avtomatlashtirilgan va interaktiv shaklda saqlash jarayonidir.

Badiiy matnning raqamli shaklda saqlanishi ilmiy hamkorlik va global digital humanities tarmog`ida faol ishtirok etish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, O`zbekiston va Markaziy Osiyo hududidagi badiiy merosni raqamlashtirish hali to`liq amalga oshirilmagan, bu esa filologik yondashuvni joriy etishni dolzarb qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlar badiiy matnning lingvistik tabiatini raqamli muhitda saqlashni turli nazariy va amaliy jihatlari bilan o`rganadi. Pierazzo (2015) raqamli matnni talqin natijasi sifatida ko`rib, uning semantik qatlamlarini saqlashning filologik muhimligini ta`kidlaydi. Matnni raqamli shaklda yaratish jarayonida har



bir semantik va sintaktik element kodlanadi, bu esa uning ilmiy tahlilga moslashuvchanligini oshiradi.

Patrick Sahle (2010) digital edition yaratishda matnning funksional imkoniyatlarini saqlashga e'tibor qaratadi. Oddiy elektron nusxa faqat passiv ko'rinishda qolar ekan, filologik raqamlashtirish matnni interaktiv va ilmiy tahlil uchun qulay shaklga aylantiradi.

Schreibman, Siemens va Unsworth (2016) digital humanities sohasida filologik raqamlashtirish metodologiyasini kengaytirib, badiiy matnlarni semantik va lingvistik jihatdan kodlashning amaliy asoslarini bayon qiladilar. Shu bilan birga, TEI Consortium (2020) standartlari badiiy matnni morfologik, sintaktik va semantik qatlamlari bilan kodlash imkoniyatini beradi.

O'zbek filologiyasi kontekstida badiiy matnlarning raqamli shaklda saqlanishi hali keng ko'lamda amalga oshirilmagan. Shu sababli, xalqaro tajriba va standartlardan foydalanish milliy adabiy merosni saqlash va tahlil qilishda muhimdir.

Badiiy matnning lingvistik va badiiy tabiatini raqamli muhitda saqlash quyidagi qatlamlar bo'yicha amalga oshiriladi(1-jadval).

1-jadval

Badiiy matnning ko'pqatlamli tuzilishi va raqamlashtirish zarurati

Qatlam	Xususiyatlari	Raqamli muhitda saqlash talablari	Muvozanat masalalari
Morfologik	So'z shakllari, affikslar, fleksiylar	Avtomatlashtirilgan morfologik kodlash, qidiruvga moslashtirish	So'z shakllarini aniqlash bilan matnning badiiy ohangini saqlash
Sintaktik	Gap tuzilishi, bog'lanishlar	XML yoki TEI orqali sintaktik belgilash	Grammatik qatlamni yo'qotmasdan matnni qidiruvga moslashtirish
Semantik	Ma'no qatlamlari, metaforik va kontekstual ma'no	Semantik kodlash, RDF ontologiyalari	Matnning badiiy ma'nosini avtomatlashtirilgan tizimga moslash
Stilistik / Uslubiy	Tilning ohangi, uslubiy xususiyatlar	Annotatsiyalar, markup bilan saqlash	Ma'no va stilistik ohangni elektron formatda saqlash
Intertekstual / Tarixiy bog'lanish	Iqtiboslar, ishoralar, boshqa asarlar bilan bog'lanish	Hyperlinklar, metama'lumotlar	Badiiy bog'lanishlarni saqlash bilan matnni ma'lumotga aylantirish

Ushbu jadvalda badiiy matnning lingvistik va badiiy tabiatini raqamli muhitda saqlash jarayoni uning ko'pqatlamli tuzilishini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Har bir qatlamning o'ziga xos xususiyatlari va saqlanishdagi talablar mavjud bo'lib, bu matnni ma'lumotga aylantirish bilan uning badiiy tabiati



o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash imkonini beradi. Morfologik qatlam so'z shakllari, affikslar va fleksiyalarni o'z ichiga oladi va raqamli muhitda TEI yoki XML belgilash tizimlari orqali saqlanishi mumkin. Shu bilan birga, badiiy matnda qo'llanilgan o'ziga xos so'z shakllari va fleksiyalar ritm va ohangni belgilaydi, shuning uchun kodlash jarayonida bu jihatlarni yo'qotmaslik muhimdir. Sintaktik qatlam esa gap tuzilishi va bog'lanishlarni o'z ichiga oladi va uni markup tizimlari yordamida kodlash mumkin; lekin murakkab jumlar va inversiyalar matnning badiiy ohangiga xizmat qilgani sababli, avtomatlashtirilgan tahlil jarayonida stilistik ifodani saqlash alohida e'tibor talab qiladi. Semantik qatlam matnning ma'no qatlamlari, metaforik va kontekstual ma'nolarini o'z ichiga oladi. Raqamli muhitda bu qatlam RDF ontologiyalari yoki TEI belgilashlari orqali kodlanadi, natijada matn ichidagi shaxslar, joylar, tarixiy voqealar va intertekstual bog'lanishlar aniqlanadi hamda foydalanuvchi ma'no asosida qidiruv va tahlil imkoniyatiga ega bo'ladi. Stilistik qatlam badiiy ritm, til ohangi va stylistik vositalarni saqlaydi; bu qatlam annotatsiyalar va markup tizimlari yordamida raqamli matnga kiritilishi lozim, chunki uning yo'qolishi matnni faqat ma'lumotga aylantiradi va badiiy qiymatini kamaytiradi. Shu bilan birga, intertekstual va tarixiy qatlam matnning boshqa asarlar bilan bog'lanishi, tarixiy konteksti va iqtiboslarni o'z ichiga oladi, bu esa hyperlinklar, metama'lumotlar va RDF ontologiyalari orqali saqlanishi mumkin. Intertekstual qatlamning mavjudligi matnga qo'shimcha ilmiy va badiiy qiymat beradi, uning yo'qolishi matnni statik va kontekstsiz ma'lumotga aylantiradi. Jadval va tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, badiiy matnni raqamli muhitga ko'chirish jarayonida polimorf variantlar yaratish, semantik va stilistik qatlamlarni saqlash, interaktiv qidiruv va tahlil imkoniyatini ta'minlash muhimdir. Shu bilan birga, matnning lingvistik tabiati, badiiy ohangi va intertekstual bog'lanishlari yo'qotilmasdan, u raqamli gumanitar muhitda ilmiy va filologik tahlil uchun mos resursga aylanadi. Bu esa filologik raqamlashtirishning asosiy vazifasi bo'lib, badiiy matnni faqat ma'lumotga aylantirmasdan, uning ko'ppqatlamli tuzilishini va badiiy tabiati bilan uyg'unligini saqlashni ta'minlaydi.

Badiiy matnning raqamli muhitda saqlanishi va filologik tahlil uchun moslashtirilishi jarayoni uning ko'ppqatlamli tabiati bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, morfologik va sintaktik qatlamlar avtomatlashtirilgan kodlash orqali saqlanishi mumkin bo'lsa-da, semantik, stilistik va intertekstual qatlamlar matnning badiiy qiymatini belgilovchi markaziy elementlar sifatida e'tiborga olinishi shart. Semantik qatlam matn ma'nosini, metafora va kontekstual munosabatlarni saqlashga xizmat qilsa, stilistik qatlam badiiy ritm, ohang va uslubiy o'ziga xoslikni ta'minlaydi. Intertekstual qatlam esa matnni boshqa asarlar bilan bog'lab, uning tarixiy va adabiy kontekstini boyitadi. Shu bilan birga, polimorf variantlar yaratish, interaktiv qidiruv va tahlil imkoniyatlarini ta'minlash filologik raqamlashtirish jarayonini to'liq amalga oshirishga imkon beradi.

Raqamli muhitga ko'chirish jarayonida asosiy muammo – matnni faqat ma'lumotga aylantirmasdan, uning lingvistik, stilistik va semantik tabiati bilan uyg'unligini saqlashdir. Oddiy raqamlashtirish vositalari ko'pincha bu qatlamlarni



e'tiborsiz qoldiradi, natijada matnning badiiy va ilmiy qiymati kamayadi. Shu sababli, filologik raqamlashtirishning asosiy maqsadi har bir qatlamni kodlash orqali saqlash, ularni ilmiy tahlil va qidiruv imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirishdan iborat.

Takliflar sifatida tadqiqotlarimiz asosida quyidagilar shakllantirildi:

1. Filologik raqamlashtirish standartlarini joriy etish: Matnni raqamli formatga ko'chirishda TEI yoki RDF ontologiyalari kabi xalqaro standartlardan foydalanish, semantik va stilistik qatlamlarni saqlashni ta'minlash.
2. Polimorf variantlarni yaratish: Diplomatik, tanqidiy va o'quvchi uchun mo'ljallangan variantlarni bir vaqtning o'zida saqlash orqali badiiy va ilmiy imkoniyatlarni kengaytirish.
3. Interaktiv va dinamik tahlil platformalari yaratish: Foydalanuvchilar matn ustida izohlar qo'shishi, bog'lanishlarni tahlil qilishi va ma'no asosida qidiruvni amalga oshirishi uchun raqamli platformalarni rivojlantirish.
4. Badiiy qatlamlarni saqlashga alohida urg'u berish: Stilistik, semantik va intertekstual qatlamlarni avtomatlashtirilgan kodlash jarayonida yo'qotmaslik, ularni annotatsiyalar va markup orqali saqlash.
5. Markaziy Osiyo va O'zbek filologiyasi uchun maxsus korpuslar yaratish: Milliy badiiy merosni filologik raqamlashtirish orqali saqlash va tadqiqotchilar uchun interaktiv resursga aylantirish.

Shu tarzda, filologik raqamlashtirish nafaqat matnni raqamli formatga aylantirish, balki uning badiiy, lingvistik va ilmiy qatlamlarini saqlash, interaktiv tahlil imkoniyatlarini yaratish orqali badiiy matnni yangi funksional muhitga ko'chirish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Schreibman, S., Siemens, R., & Unsworth, J. *A Companion to Digital Humanities*. Chichester: Wiley-Blackwell, 2016. – 512 p.
2. Clemens, R., & Graham, S. *Introduction to Digital Scholarly Editing*. London: Routledge, 2017. – 224 p.
3. □ Liu, A. *The Laws of Cool: Knowledge Work and the Culture of Information*. Chicago: University of Chicago Press, 2004. – 288 p.



АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

Ә.ШАМУРАТОВТЫҢ «МЕНИҢ ЖОЛБАРЫСЛАР МЕНЕН
УШЫРАСЫҰЛАРЫМ» ШЫҒАРМАСЫНЫҢ ЖАНРЛЫҚ ХӘМ
КӨРКЕМЛИК ӨЗГЕШЕЛИГИ

Сайымбетов Ш.

Ўзбекистан Республикасы Илимлер академиясы
Қарақалпақстан бөлими Қарақалпақ гуманитар
илимлер илим изертлеу институты

Аннотация. Мақолада қарақалпақ адабиётининг истеъдодли ёзувчиси Ә.Шамуратовнинг «Менинг йўлбарслар билан учрашувларим» эпик асарининг жанрий ва бадиий хусусиятлари ўрганилган.

Калит сўзлар. Жанр, бадиийат, проза, маҳорат, сюжет, эртак, повесть, фольклор.

Ә.Шамуратов бул шығармасын өзиниң терең билими, шеберлиги арқасында бизге инам етти. Шығармада бастан аяғына жазыўшының жолбарыс пенен ушырасыў ўақыялары сўўретленген. Шығарманың жанрлық хәм көркемлик өзгешелигине келсек, әдетте бул ертек-повесть болып, онда қыялый ўақыялар көркемлик пенен сўўретленген. Мысалы: “Сүзеўик буға” бөлиміндеги буғаның жолбарысты тик жарға тақап үш күн жылжытпастан турыўы, “Жолбарыс мениң сәлемимди алды” бөлиміндеги аңшының сәлемин жолбарыстың алыўы, “Жолбарыс пенен айқастым” бөлиміндеги аңшының жолбарыс пенен айқасыўы х.т.б. келтириў мүмкин. Бирақ, бул шығармада ўақыяның баянланыўы исенимли, турмыс шынлығы тийкарында сўўретленген. Әлбетте, бул дөретиўшиниң шеберлиги арқасында. Шығармада бастан аяғына аңшының батырлығы, адам жеңе алмайтуғын жолбарысты көп қыйыншылықлар менен жеңиўи ўақыялары жазыўшының қыялы негизинде турмыс ҳақыйқатлығы менен байланыстырылып сўўретленген. Шығарманың сўўретлениўинде адамның яғный аңшының батырлығы ең жоқарғы орынға көтерилип баянланған. Усы баянлаў шеберлик ертек жанрының өзгешеликлерин өз ишине қамтыған. Демек жазыўшы ертектей етип айтып бериў усылын турмыс шынлығы менен тығыз байланыстырып сўўретлейтуғын повесть жанрына тутастырған. Соның ушын бул шығарма повесть деп те аталған. Ҳақыйқатында да шығармада повесть жанрына киретуғын турмыс шынлығы өз көринисин тапқан. Мысалы: Повесть жанрының нызамына сәйкес шығарманың сюжетлик арқаўы биреў болып, ўақыя бир адамның этирапында қурылған. Усы жағынан бул шығарма ертек-повесть деп аталады.



Бул ертек-повесть жанрындағы шығарма қарақалпақ прозасындағы биринши баслама болып табылады. Бул жазыушының көп излениушилиги, фольклорлық сүүретлеу усылы менен реалистлик сүүретлеу усылын бирлестириуи негизинде әмелге асырылған. Шығарма әуели аңшының жолбарысты аўлауға барғандағы қыйыншылыққа ушырауы хәм дайысының жәрдеми менен жолбарысты өлтириуі ўақыялары менен басланады. Бунда аңшы жолбарыс аўлауға биринши шыққаны ушын онша жолбарыстың шаққанлығын, күшлилигин билмеген еди. Ол қәдимги қырғауыл, қоян т.б. хайўанларды атқандай етип атаман деп ойлап шығады. Ақыбетинде өзи қыйыншылықларға дус келеди, яғный жолбарысты дайысының жәрдеми менен өлтиреди. Сонда ол хайўанға хийле ислеудиң керек екенлигин хәм оларға абайлап қатнас жасап, аңшылық сырларын ийелеу зәрүр екенлигин биледи. Мине, ўақыялар солай эволюциялық раўажланыу менен бериледи. Екинши бөлимінде болса, аңшы бул өзи жолбарысты қораның ишинде атып өлтиреди. Пүткил аўыл халқын қорқынышлы күнлерден қутқарады. Бул бөлимде аңшының шеберлигиниң бираз асқанлығын оқыймыз. Үшинши бөлимде болса, аңшының ең қорқынышлы жолбарыстың аўзынан есабын таўып қутылыу ўақыясы сүүретленген. Солай етип, шығарманың ўақыя тереңлесип барады. Әуели жолбарысты аўлап билмейтуғын аңшы енди жолбарыстың аўзына түсип есабын таўып қашыуы басынан өтти. Шығарманың хәр бир бөлими усылай қызықлы, көркемлиги жағынан байып барады. Төртинши бөлимде аңшының жолбарысқа жәрдем бериуи ўақыялары сүүретленген. Бунда аңшы жолбарыстың аяғына кирген шеңгелди алады. Енди бул бөлим арқалы шығарма аңшы менен жолбарыстың досласыу ўақыясы менен байыған. Сондай-ақ, аңшы жолбарыстың баласын өлимнен де қутқарады. (Бесинши бөлим). Алтыншы бөлимде аңшының жолбарыс пенен айқасыу ўақыясы сүүретленеди. Жетинши бөлимде болса аңшы Нурлыбай ғарры менен ғаз аўлауға барғанда жолбарысты сыртынан гүзетиуи сүүретленеди. Көрип отырғанымыздай, шығарманың хәр бир бөлиминиң ўақыясы хәр қыйлы, әуели жолбарыс туўралы хабары жоқ аңшы, енди жолбарыс пенен досласты, айқасты, түрли-түрли жақлары менен танысып, шеберлиги асып барады. Мине усыларды жазыушы турмыста болғандай етип реал сүүретлейди. Ал, сегизинши, тоғызыншы бөлимлерде болса, аңшы жолбарысты тек сыртынан гүзетеди. Биринде жолбарыс пенен түйениң ўақыясы, екиншисинде жолбарыс пенен сүзеуик буғаның ўақыялары баян етилген. Булар енди ертек формасында айтып бериу усылы менен реал өмир хәдийселериндей етип баянланған. Оныншы бөлимде Злобинниң менменлиги себепли жолбарыстың оның оң қолын мылжа-мылжа етиу ўақыялары сүүретленген. Буларда ҳақыйқат турмыс шынлығы адамның хайўанатлар менен байланысы, аңшының өмири тийкарында берилген. Шығарманың ақыры он биринши бөлими жолбарыстың аңшының сәлемин алыуы менен



жазыўшы усылардың бәрин бир аңшы өмиринде болып атырған түрли таңқаларлық ўақыялардай етип шынлық пенен берген. Көрип өткенимиздей, шығарма ертеқ жанрының барлық өзгешеликлерин өзлестирген ҳалда повестьлик формада сүүртеленеди. Бунда адам исениўи мүмкин болмаған ўақыяларды да дөретиўши ертеқ усылын реалистлик баянлаў менен толық исенимли, анық басынан өткендей етип баянлайды. Әжайып ўақыялар, бастан кеширмелер аңшының тили менен жүдә көркем етип бериледи. Қарақалпақ әдебиятында бундай жанрда жазылған шығарма оғада аз. Ә.Шамуратов бул жанрды бириншилерден болып ашып берди. Бундай жанрлық шығарманы дөретиў Ә.Шамуратовтың шеберлиги болып есапланады. Шығарманың тағы да жанрлық өзгешеликлеринен бири, биригип кеткен ўақыяларды қысқа баянлаўы жағынан гүрриң жанрына да жақын. Мысалы, шығарманың ҳәр бир бөлиминде аңшы менен жолбарыстың ўақыялары биригип, мазмуны байып барады. Сондай-ақ, шығармадан бир сөзди қосыў ямаса алып таслаўда мүмкин емес. Егер сырттан сөз қосылса, шығарманың мазмуны бузылады. Мине, усындай композициялық қурылыста турмыс ўақыялары ертеқ-повесть жанрының өз ара бириктирилип жиберилиўинде шебер баянланған. Бул шығарманың жанрлық өзгешелигин үйрениў келешекте әдебияттануў илиминде усындай бағдарда көркем шығармалардың көплеп дөретилиўине бағдар береди.

Пайдаланған әдебиятлар:

1. Мәмбетов К. Әдебият теориясы. - Нөкис: Билим, 1995.
2. Шамуратов Ә. Шығармалары. - Нөкис: Қарақалпақстан, 1992.



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК МАҲСУЛОТЛАРИ ҚИЙМАТ ЗАНЖИРИНИ
ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Хакимова Феруза Абдуллажонова
ВМ ҳузуридаги Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби
“МВА – Агробизнес” мутахассислиги тингловчиси

Эргашев Хуршид Набиевич
ВМ ҳузуридаги Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби
Андижон вилоят ҳудудий филиали бош мутахассиси
Hurshid-ergashev@rambler.ru

Аннотация Ушбу мақолада қишлоқ хўжалик маҳсулотлари қиймат занжирини таҳлил қилишнинг назарий асослари, методологик ёндашувлари ва Ўзбекистон шароитидаги амалий жиҳатлари ўрганилган. Тадқиқотда қиймат занжирида қўшимча қиймат яратиш босқичлари, иштирокчилар ўртасида қиймат тақсмоти ва тармоқ самарадорлигини ошириш омиллари таҳлил қилинган. Натижалар қишлоқ хўжалигида рақобатбардошликни ошириш ва экспорт салоҳиятини кучайтириш учун муҳим аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: қиймат занжири, аграр иқтисодиёт, қайта ишлаш, логистика, рақобатбардошлик.

Жаҳон иқтисодиётида глобаллашув жараёнлари чуқурлашиб бораётган бир шароитда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш, қайта ишлаш ва истеъмолчига етказиб бериш тизимини самарали ташкил этиш долзарб аҳамият касб этмоқда. Айниқса, “қиймат занжири” тушунчаси иқтисодий таҳлилнинг муҳим инструменти сифатида кенг қўлланилмоқда.

Америкалик иқтисодчи Майкл Портер таъкидлаганидек: *“Қиймат занжири — бу компания фаолиятини стратегик жиҳатдан таҳлил қилиш ва рақобат устунлигини аниқлашга хизмат қилувчи тизимдир”* (Porter, 1985). Ушбу ёндашувни қишлоқ хўжалигига татбиқ этиш маҳсулот ҳаракатининг барча босқичларини чуқур ўрганиш имконини беради.

Қиймат занжири маҳсулотнинг хомашё сифатида ишлаб чиқарилишидан тортиб, унинг тайёр ҳолда истеъмолчига етказилишигача бўлган жараёнларни қамраб олади.

Каплинский ва Моррис (2001) таъкидлаганларидек: *“Қиймат занжири таҳлили ишлаб чиқариш жараёнидаги барча иштирокчилар ўртасида қиймат қандай яратилиши ва тақсимланишини тушуниш имконини беради”*.

Қишлоқ хўжалигида қиймат занжири қуйидаги босқичлардан иборат:

- ишлаб чиқариш (фермер хўжаликлари),
- йиғиш ва сақлаш,
- қайта ишлаш,



- транспорт ва логистика,
- савдо ва маркетинг.

Ҳар бир босқич маҳсулот қийматини оширишда ўзига хос рол ўйнайди.

Қишлоқ хўжалигида бошқа соҳаларга қараганда қиймат занжирининг ўзига хос хусусиятлари алоҳида аҳамият касб этади. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари қиймат занжири бошқа тармоқларга нисбатан қуйидаги жиҳатлари билан фарқ қилади:

- табиий омилларга боғлиқлик;
- маҳсулотнинг тез бузилиши;
- мавсумийлик хусусияти;
- кичик ишлаб чиқарувчилар улушининг юқорилиги.

FAO маълумотида кўра: *“ривожланаётган мамлакатларда фермерлар кўпинча қиймат занжирининг энг кам даромад олувчи қисми ҳисобланади”* (FAO, 2014). Бу ҳолат занжирда қиймат тақсимоти муаммоси мавжудлигини кўрсатади.

Қиймат занжирини таҳлил қилишда бир қатор илмий ва амалий усуллар қўлланилади:

1. Функционал таҳлил - Бу усул занжирдаги ҳар бир босқичнинг вазифаларини ўрганишга қаратилган. Масалан, фермер ишлаб чиқаради, қайта ишловчи қўшимча қиймат қўшади.

2. Иштирокчилар таҳлили - Бу ерда барча иштирокчилар (фермерлар, воситачилар, экспортёрлар)нинг роллари аниқланади.

3. Қиймат тақсимоти таҳлили - Каплинский таъкидлаганидек: *“қиймат занжирида асосий масала — ким қанча қиймат олади?”*

4. SWOT таҳлил - Кучли ва заиф томонлар, имкониятлар ва таҳдидлар аниқланади.

Ўзбекистонда аграр соҳани ислоҳ қилиш жараёнларида қиймат занжири ёндашуви кенг қўлланилмоқда.

Президент Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек: *“Қишлоқ хўжалигини модернизация қилишда маҳсулотни чуқур қайта ишлаш ва экспортга йўналтириш устувор вазифа ҳисобланади”*.

Ҳозирги кунда мамлакатда:

- пахта-гўқимачилик кластерлари,
- мева-сабзавот кластерлари,
- агрологистика марказлари фаолият юритмоқда.

Бироқ қуйидаги муаммолар сақланиб қолмоқда:

- қайта ишлаш даражасининг пастлиги;
- логистика тизимининг етарли эмаслиги;
- экспорт стандартларига мослашиш муаммолари.

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари қиймат занжирини ривожлантириш учун қуйидаги чоралар кўриш муҳим ҳисобланади:

1. Қайта ишлашни ривожлантириш - Маҳсулотни хомашё сифатида эмас, балки тайёр маҳсулот сифатида сотиш даромадни оширади.

2. Логистика инфратузилмасини яхшилаш - Совуткич омборлари ва



транспорт тизими ривожланиши зарур.

3. Рақамли технологияларни жорий этиш - Агротехнологиялар ва рақамли платформалар самарадорликни оширади.

4. Экспортни қўллаб-қувватлаш - Янги бозорларга чиқиш орқали қўшимча қиймат яратилади.

Жаҳон банки ҳисоботига кўра: “қиймат занжирини ривожлантириши фермерлар даромадини 20–30% га ошириши мумкин” (World Bank, 2020).

Мавзуни ўрганиш жараёнида таҳлиллар шуни кўрсатадики:

- қиймат занжирида қайта ишлаш энг юқори даромад манбаи ҳисобланади;
- фермерлар улушини ошириш учун кооперацияни ривожлантириш зарур;
- давлат ва хусусий сектор ҳамкорлиги муҳим аҳамиятга эга.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари қиймат занжирини таҳлил қилиш иқтисодий самарадорликни ошириш, рақобатбардошликни кучайтириш ва экспорт салоҳиятини ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга.

Тўғри ташкил этилган қиймат занжири фермерлардан тортиб, якуний истеъмолчигача бўлган барча иштирокчилар учун манфаат келтиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Porter M.E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. — New York: Free Press, 1985.
2. Kaplinsky R., Morris M. *A Handbook for Value Chain Research*. — IDRC, 2001.
3. FAO. *Developing Sustainable Food Value Chains*. — Rome, 2014.
4. World Bank. *Agricultural Value Chain Development Report*. — Washington DC, 2020.
5. Мирзиёев Ш.М. *Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш стратегияси бўйича нутқлар*. — Тошкент, 2020.
6. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги маълумотлари, 2022.
7. Asian Development Bank. *Agriculture Value Chain Analysis in Central Asia*. — Manila, 2019.
8. UNIDO. *Agro-value chain development and upgrading*. — Vienna, 2018.



TRANSPORT SOHASIDA MARKETINGNI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

Raxmatullayeva Sadokat Kamuljonovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada transport sohasida marketingni tashkil etish zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, transport sohasida marketingni tashkil etish tamoyillarini tadqiq qilish bo'yicha xulosalar bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются необходимость, существующие возможности и принципы организации маркетинга в транспортном секторе. Также представлены выводы по результатам исследования принципов организации маркетинга в транспортном секторе.

Abstract. This article discusses the need, existing opportunities and principles of organizing marketing in the transport sector. It also presents conclusions on the study of the principles of organizing marketing in the transport sector.

Kalit so'zlar. Transport, soha, marketing, tamoyil, iste'molchi.

Ключевые слова. Транспорт, сектор, маркетинг, принцип, потребитель.

Key words. Transport, sector, marketing, principle, consumer.

Transport sohasida marketingni tashkil etish tamoyillari zamonaviy iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ushbu transport tizimi yuk va yo'lovchilarni tashish vositasi hamda mintaqa iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili bo'lib hisoblanadi. Bu boradagi hujjatlar shahar jamoat transporti sharoitida marketing strategiyasini shakllantirish parametrlarini belgilaydi va xususan marketing birikmasi va segmentatsiya tushunchalarining foydaliligini ta'kidlaydi. Xizmat atributlari va targ'iboti asosiy o'lchovini o'z ichiga olgan marketing majmuasi targ'ib qilinadi. Ya'ni, u xizmat narxlari, avtomobil ichidagi vaqt, zichlik, chastota, ishonchlilik va qulaylik kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi [1]. Shunga muvofiq, transport sohasidagi marketing uni boshqa sohalardan ajratib turadigan alohida qiyinchilik va imkoniyatlarni taqdim etadi. Aviakompaniyalar, jamoat transporti, sayohat almashish xizmatlari yoki logistika kompaniyalari bo'ladimi, transport sektori maxsus marketing strategiyasini talab qiladi [2]. Shu bois, transport xizmatlari bozorida marketingni to'g'ri tashkil etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish, xizmat sifatini yaxshilash va mijozlar ehtiyojini qondirish mumkin. Bu boradagi tadqiqotlarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida marketing tamoyillari asosida transport xizmatlari bozorini optimallashtirishga yo'naltirilgan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish lozimligi asoslangan [3].

Avvalo, transport marketingining asosiy tamoyillaridan biri bozorga yo'naltirilganlik tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyilga ko'ra, transport korxonalari o'z faoliyatini bozor talabi va iste'molchilar ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etishi



zarur. Ya'ni, yuk tashish, yo'lovchi tashish yoki logistika xizmatlari ko'rsatishda mijozlarning talablari, ularning to'lov qobiliyati va xizmatga bo'lgan kutishlari chuqur o'rganilishi lozim. Marketing tadqiqotlari orqali bozor segmentlari aniqlanadi va har bir segment uchun alohida xizmat strategiyasi ishlab chiqiladi.

Ikkinchi muhim tamoyil - iste'molchiga yo'naltirilganlikdir. Transport xizmatlari bevosita insonlar va korxonalar ehtiyojini qondirishga qaratilganligi sababli mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yish ustuvor bo'lib hisoblanadi. Bu yerda xizmat sifati, tezkorlik, xavfsizlik va qulaylik asosiy omillar bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi tamoyil - raqobatbardoshlikni ta'minlash tamoyilidir. Transport bozori ko'plab ishtirokchilar bilan to'yingan bo'lib, unda muvaffaqiyat qozonish uchun xizmatlarning noyob jihatlarini ishlab chiqish zarur. Bu esa narx siyosati, xizmat sifati, qo'shimcha servislar (eshikdan eshikkacha yetkazib berish va onlayn kuzatuv tizimlari) orqali amalga oshiriladi. Raqobatbardoshlikni oshirishda innovatsion texnologiyalar va raqamli marketing vositalaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

To'rtinchi tamoyil integratsiyalashgan marketing yondashuvi hisoblanadi. Transport xizmatlarini samarali tashkil etishda logistika, axborot texnologiyalari, moliya va boshqaruv tizimlari o'zaro uyg'unlashgan holda faoliyat yuritishi kerak. Masalan, multimodal tashish tizimlari (temir yo'l, avtomobil, havo va dengiz transporti integratsiyasi) orqali yuklarni tez va samarali yetkazib berish imkoniyati yaratiladi. Bu esa mijozlarga kompleks xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

Beshinchi tamoyil - innovatsion rivojlanish tamoyilidir. Zamonaviy transport marketingi doimiy ravishda yangi texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi. Raqamli platformalar, mobil ilovalar, GPS kuzatuv tizimlari, elektron to'lov tizimlari transport xizmatlarining samaradorligini oshiradi. Ekologik toza transport vositalarini joriy etish ham marketingning muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Chunki, bugungi kunda iste'molchilar ekologik masalalarga katta e'tibor qaratmoqda.

Oltinchi tamoyil - moslashuvchanlik va tezkorlik tamoyilidir. Bozor sharoitlari tez o'zgarib borayotgan bir paytda transport korxonalari o'z strategiyalarini tezkor ravishda moslashtira olishi zarur. Bu esa talabning mavsumiy o'zgarishlari, iqtisodiy vaziyat va logistika zanjirlaridagi o'zgarishlarga tez javob berishni talab qiladi.

Yettinchi tamoyil iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash tamoyili hisoblanadi. Transport marketingi faqat mijozlarni jalb qilish bilan cheklanmay, ya'ni korxonaning daromadlilikini oshirishga ham xizmat qilishi kerak. Xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va foyda marjasini oshirish marketing strategiyasining ajralmas qismidir.

Sakkizinchi tamoyil - uzluksizlik va tizimlilik tamoyilidir. Marketing faoliyati bir martalik emas, ya'ni doimiy jarayon sifatida olib borilishi lozim. Bozorni tahlil qilish, strategiyalarni yangilab borish va natijalarni baholash muntazam ravishda amalga oshirilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, transport sohasida marketingni tashkil etish tamoyillari bozor talabi va iste'molchi ehtiyojlariga moslashish, innovatsion yondashuvlarni



qo‘llash, xizmat sifatini oshirish hamda raqobatbardoshlikni ta’minlashga qaratiladi. Ushbu tamoyillarni amaliyotga samarali joriy etish orqali transport tizimi barqaror rivojlanadi, xizmatlar sifati yaxshilanadi va iqtisodiy samaradorlik oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Moran, A.J., Jones, W.H. The formulation of marketing strategy in urban public transport. *Transportation* 4, 209–229 (1975).
<https://doi.org/10.1007/BF00153576>
2. <https://hypervsn.com/blog/navigating-the-unique-terrain-of-marketing-in-the-transport-sector.html>
3. Irisbekova M.N. Marketing tamoyillari asosida transport xizmatlari bozorini optimallashtirish. // Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. - T., 2017. - 9 b.



MINTAQA TURIZM SOHASIDA SINERGETIK SAMARANI OSHIRISH MUAMMOLARI

Yaxshimuratova Anajon G‘ayratovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti magistranti,
e-mail: yaxshimuratovaa@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyoti barqarorligini ta‘minlashda turizm sohasini rivojlantirish xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari va amalga oshirish yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, mintaqa iqtisodiyotida turizm sohasini rivojlantirish yuzasidan xulosa keltirilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности, существующие возможности и направления развития сектора туризма в обеспечении стабильности региональной экономики. Также приводятся выводы о развитии сектора туризма в региональной экономике.

Abstract. This article discusses the features, existing opportunities and directions of development of the tourism sector in ensuring the stability of the regional economy. It also provides a conclusion on the development of the tourism sector in the regional economy.

Kalit so‘zlar. Mintaqa, iqtisodiyot, barqarorlik, turizm, yo‘nalish.

Ключевые слова. Регион, экономика, стабильность, туризм, направление.

Key words. Region, economy, stability, tourism, direction.

Hozirgi globallashuv sharoitida turizm mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim drayverlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Turizm xizmatlar sohasini, transport, savdo, madaniyat, qurilish, qishloq xo‘jaligi va axborot texnologiyalari kabi ko‘pgina tarmoqlar bilan uzviy bog‘liq. Bu borada respublika yalpi ichki mahsulotida turizm va xizmatlar sohasining ulushini oshirish va mamlakatdagi istiqbolli hududlarni “o‘sish qutblari” sifatida rivojlantirish masalalariga e‘tibor qaratiladi [1]. Shu nuqtai nazardan, turizm sohasida sinergetik samarani oshirish mintaqaning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu holatda turizm va dam olish tarmog‘idagi tashkilotlararo o‘zaro ta‘sirning sinergetik ta‘sirini ittifoq tarkibiga kiruvchi turizm va mehmonxona korxonalarining birgalikdagi faoliyati jarayonida asosiy faoliyat turlarida menejment, marketing, xodimlarni boshqarish, innovatsiya va boshqalarda yuzaga keladigan ta‘sir sifatida qaraladi [2]. Bu esa turizm va dam olish tarmog‘ining sifat jihatidan yangi holatiga olib keladi.

Sinergetik samara alohida sub‘ektlar yoki tarmoqlarning birgalikdagi faoliyati natijasida hosil bo‘ladigan va ularning yakka holdagi faoliyati natijalaridan yuqori bo‘lgan ijobiy ta‘sirni ifodalaydi. Ammo, amaliyotda mintaqaviy turizm bu samarani oshirish qator muammolar bilan to‘qnash kelmoqda. Bu borada turizm



sohasida sinergetik samara davlat va xususiy sektor hamkorligi, turizm infratuzilmasi va xizmatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, mahalliy aholi, tadbirkorlar va turistik tashkilotlar manfaatlarining uyg'unlashuvi hamda madaniy, tabiiy va iqtisodiy resurslardan kompleks foydalanish kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi.

Sinergetik samara orqali turistik mahsulot raqobatbardoshligi oshadi, xarajatlar qisqaradi, xizmat sifati yaxshilanadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va mintaqaning investitsion jozibadorligi ortadi. Shu sababli, sinergiyani ta'minlash har bir hudud uchun strategik vazifa bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonda turizm sohasida sinergetik ta'sirlarni baholash masalalari hozircha dastlabki muhokama bosqichiga xosdir [3].

Mintaqaviy turizm rivojlanishida asosiy ishtirokchilar va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar amalga oshiriladi. Bu holatda mintaqa turizm tizimida mahalliy davlat hokimiyati organlari, turistik firmalar va operatorlar, mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport tashkilotlari, madaniyat va meros ob'ektlari, mahalliy aholi va hunarmandlar hamda investorlar va moliya institutlari kabi asosiy ishtirokchilar ishtirok etadi. Ammo, ushbu sub'ektlar o'rtasida hamkorlik doim ham samarali tashkil etilmaydi. Aksariyat hollarda har bir ishtirokchi o'z manfaatini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa umumiy sinergetik samarani pasaytiradi.

Ayniqsa, mintaqa turizm sohasida sinergetik samarani oshirish hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Turizmning ko'p tarmoqli xususiyati transport, xizmat ko'rsatish, madaniyat, savdo va boshqa sohalar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni kuchaytiradi va to'g'ri tashkil etilgan hamkorlik orqali qo'shimcha qiymat yaratish imkonini beradi. Unga asosan, asosiy muammolar sifatida institutsional muvofiqlashtirishning yetarli emasligi, infratuzilmaning noteng rivojlanishi, axborot almashinuvi tizimining sustligi, kadrlar salohiyatining cheklanganligi va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining kamligi qayd etiladi. Shuningdek, mahalliy aholining turizm jarayonlariga to'liq jalb etilmasligi ham sinergetik samaraning pasayishiga olib kelmoqda.

Shulardan kelib chiqib, mintaqada sinergetik samarani oshirishda asosiy muammolar mavjud bo'lib, bu muammolar quyidagi tasniflarga ajratiladi:

- institutsional muammolar. Bu holatda mintaqalarda turizmni muvofiqlashtiruvchi yagona organ yoki samarali boshqaruv mexanizmining mavjud emasligi sinergiyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Turli idoralar o'rtasida vakolatlar taqsimotining noaniqligi qaror qabul qilishni sekinlashtiradi.

- infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi. Bu borada yo'llar, transport aloqalari, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari va muhandislik infratuzilmasining yetarli emasligi turizm ishtirokchilari o'rtasida samarali hamkorlikka to'sqinlik qiladi.

- axborot almashinuvi muammolari. Unga asosan, turistik tashkilotlar, mahalliy hokimiyat va tadbirkorlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvining sustligi sinergetik samarani cheklaydi. Yagona raqamli platforma va ma'lumotlar bazasining yo'qligi ushbu muammoni yanada kuchaytiradi.



- inson kapitali va kadrlar masalasi. Unga asosan, malakasi past kadrlar, zamonaviy boshqaruv va marketing ko'nikmalarining yetishmasligi turizm sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga to'sqinlik qiladi.

- moliyaviy cheklovlar. Bu borada kichik va o'rta turistik biznes uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Bu esa qo'shma loyihalar va klasterlar rivojini sekinlashtiradi.

Shunisi muhimki, turizm klasterlari sinergetik samarani oshirishning eng samarali shakli bo'lib hisoblanadi. Biroq, amaliyotda esa klaster ishtirokchilari o'rtasida ishonch darajasi past bo'ladi, huquqiy va tashkiliy mexanizmlar yetarli darajada ishlab chiqilmaydi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashi tizimli bo'lmaydi. Natijada, klasterlar to'liq quvvat bilan ishlamaydi va kutilgan sinergetik samaraga erishilmaydi.

Mahalliy aholini jalb etish bilan bog'liq muammolar ham uchraydi. Unga asosan, mintaqa turizmini rivojlantirishda mahalliy aholining ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Ammo, ko'pgina hollarda aholining turizmdan oladigan foydasi cheklangan bo'ladi, ekologik va ijtimoiy xavflar hisobga olinmaydi va aholining qarshiligi ham yuzaga keladi. Ushbu holat turizm sub'ektlari o'rtasida salbiy sinergiya, ya'ni ziddiyatli ta'sirlarni keltirib chiqaradi.

Xulosa shuki, mintaqada turizm sohasida sinergetik samarani oshirish uchun davlat, xususiy sektor va mahalliy jamoalar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, klaster yondashuvini rivojlantirish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish va inson kapitalini mustahkamlash zarur. Faqat kompleks va tizimli yondashuv orqaligina turizm mintaqaviy taraqqiyotning barqaror va samarali omiliga aylanishi mumkin. Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- mintaqaviy turizmni boshqarish bo'yicha yagona koordinatsion organ tashkil etish;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish;
- turizm klasterlari va tarmoqlararo hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- raqamli platformalar orqali axborot almashinuvini yaxshilash;
- kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish;
- mahalliy aholini turizm zanjiriga faol jalb etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Эгамбердиев Ф.Т., Махмудов М.М. Минтақалар туризмини ривожлантиришда хорижий мамлакатлар тажрибалари. // "Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, No1(1), 2021. - 39 b.

2. Рубцова Н.В., Солодухин К.С. Метод оценки синергического эффекта межорганизационного взаимодействия в туристско-рекреационной сети. // Мир экономики и управления, 2021, Т.21, №3. - с. 138. DOI 10.25205/2542-0429-2021-21-3-132-146.

3. Usmonova D.K., Kilichov B.Kh. Assessment of the synergy effect in tourism. // The American Journal of Management and Economics Innovations, Volume04, Issue02. - p. 19.



ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

HISOB KITOB ISHLARINI VAJARISHDA EXCEL DASTURINING
IMKONIYATLARI

Avazyozova Iroda

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Amaliy matematika yoʻnalishi

2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu akademik maqola zamonaviy buxgalteriya hisobida Microsoft Excel dasturining beqiyos imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qiladi. Maqolada Excelning ma'lumotlarni kiritish, tartibga solish va tasdiqlashdan tortib, murakkab moliyaviy hisob-kitoblar, kengaytirilgan hisobotlar, ma'lumotlarni vizuallashtirish va avtomatlashtirishgacha boʻlgan salohiyati koʻrib chiqiladi. Shuningdek, Excelning moliyaviy hisobotlarni tuzish, byudjetlashtirish va prognozlash kabi amaliy qoʻllanilishi hamda buxgalteriya kasbining kelajagi uchun uning doimiy ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit soʻzlar: Excel, Buxgalteriya hisobi, Moliyaviy tahlil, Ma'lumotlarni vizuallashtirish, Avtomatlashtirish, Moliyaviy modellashtirish, VBA, Byudjetlashtirish

Zamonaviy biznes muhiti, raqamli transformatsiya jarayonida, mutaxassislardan, ayniqsa, buxgalteriya sohasi bitiruvchilaridan kuchli raqamli koʻnikmalarga ega boʻlishni talab qilmoqda. Ushbu koʻnikmalar orasida Microsoft Excel dasturida ishlash qobiliyati ish beruvchilar va akademik doiralar tomonidan eng muhimlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Excel shunchaki elektron jadval dasturidan koʻproq boʻlib, moliyaviy ma'lumotlarni boshqarish, tahlil qilish va taqdim etishda markaziy vosita sifatida xizmat qiladi. Uning buxgalteriya amaliyotidagi oʻrni ma'lumotlarni kiritish va tartibga solishdan boshlanib, moliyaviy koʻrsatkichlarni aniq hisoblash, batafsil hisobotlar yaratish, ma'lumotlarni vizuallashtirish orqali tushunarli tahlillar qilish va hatto jarayonlarni avtomatlashtirishgacha boʻlgan keng qamrovli vazifalarni oʻz ichiga oladi.

Buxgalteriya sohasi mutaxassislari uchun Excelni mukammal oʻzlashtirish, ayniqsa moliyaviy rejalashtirish va tahlil (FP&A) hamda buxgalteriya hisobi boʻlimlarida, ma'lumotlarni tahlil qilish, byudjetlashtirish, prognozlash va strategik qarorlar qabul qilish uchun zaruriy koʻnikma hisoblanadi. Bu maqola Excel dasturining buxgalteriya hisobi jarayonlarini samaradorligini oshirish va moliyaviy tahlil sifatini yaxshilashdagi imkoniyatlarini chuqur oʻrganadi. Maqolaning maqsadi Excelning turli funksiyalari va vositalarini buxgalteriya amaliyotining har bir bosqichida qanday qilib samarali qoʻllash mumkinligini ochib berishdan iboratdir.



1. Jami narxni hisoblash

A	B	B	C	D
1				
2	Nomi	Narx, so'm	Miqdor	Jami narxi, so'm
3	Muzlatgich	6 000 000	2	=B2 C2
4	Dazmol	5 000 000	3	12 600 000
5	Gilam	3 500 000	7	8 400 000
6	Changyutgich	1 200 000	7	8 400 000
7	Choynak(eletron)	200 000	6	12 500 000
8	Konditsioner	4 500 000	3	13 500 000
9	Fen	300 000	4	8 400 000
10	Gaz plitasi	2 700 000	2	5 400 000
11	Formula umumiy narxi hisoblash uchun: =SUM(D2:D9)			
12	Natija: 76.250 000 so'm			

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Excelning buxgalteriya hisobi uchun ahamiyati keng e'tirof etilgan bo'lsa-da, uning ta'lim jarayonlariga integratsiyasi va amaliyotdagi to'liq salohiyatidan foydalanishda hali ham ba'zi muammolar mavjud. Tadqiqotchilar va ish beruvchilar buxgalteriya sohasi bitiruvchilarida kuchli raqamli ko'nikmalarni, xususan, Microsoft Excel bo'yicha bilimlarni zarur deb hisoblashadi. Biroq, Excelni buxgalteriya o'quv dasturlariga to'liq integratsiyalash ko'pincha texnologiya mazmunini professional akkreditatsiyalashning yo'qligi, o'quv rejasining tiqilishi va fakultet xodimlarining malaka darajasi bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch keladi. An'anaviy ravishda Excel alohida modullarda o'qitilsada, tadqiqotchilar uni buxgalteriya o'quv dasturlariga keng qamrovli, integrativ yondashuv orqali kiritishni tavsiya qiladilar. Dastlabki yillardagi buxgalteriya talabalari bilan o'tkazilgan dizayn-asoslangan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Excel va moliyaviy hisob-kitoblarni integratsiyalashgan holda o'rganish talabalarning Excel ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Moliyaviy rejalashtirish va tahlil (FP&A) hamda buxgalteriya hisobi mutaxassislari uchun Excel ajralmas vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki u ma'lumotlarni tahlil qilish, byudjetlashtirish, prognozlash va strategik qarorlar qabul qilishda asosiy rol o'ynaydi. Bu vosita katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamlarini talqin qilish, kelajakdagi faoliyatni modellashtirish, ish jarayonlarini soddalashtirish va asoslangan moliyaviy qarorlarni qo'llab-quvvatlash qobiliyati tufayli juda muhimdir. Excelda mahoratni oshirish uchun ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish va tozalash funksiyalari (masalan, FILTER, SORT, UNIQUE, TEXT funksiyalari va IFERROR) muhim ahamiyatga ega. SUM, AVERAGE, IF, COUNTIF va SUMIF kabi asosiy hisoblash formulalari fundamental hisoblanadi. Ma'lumotlarni samarali olish uchun esa VLOOKUP, XLOOKUP, INDEX va MATCH kabi kengaytirilgan qidiruv funksiyalari muhimdir.

VLOOKUP funksiyasi yordamida ma'lumotlarni qidirish

Nazariy asos: VLOOKUP funksiyasi jadvaldan kerakli ma'lumotni vertikal qidirish asosida topadi.



Amaliy qo‘llanilishi: Talabalar ro‘yxatidan ID raqam orqali ularning bahosini aniqlash.

Formula: =VLOOKUP(A2, A2:C10, 3, FALSE)

Tahlil: Bu funksiya katta bazalarda tezkor qidiruvni amalga oshirish imkonini beradi va vaqtni sezilarli darajada tejaydi.

Bundan tashqari, moliyaviy modellashtirish loyihalari kompaniyaning moliyaviy faoliyatini tarixiy ma'lumotlar, prognozlar va moliyaviy omillar asosida proyeksiyalashtiradi, tahlil, byudjetlashtirish, prognozlash va strategik rejalashtirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Dinamik modellar real vaqt rejimida ma'lumotlarni birlashtirib, doimiy yangilanishlar, tuzatishlar va turli moliyaviy ssenariylarni simulyatsiya qilish imkonini beradi, bu esa strategik qarorlar qabul qilish uchun juda muhimdir. Microsoft Excel dinamik moliyaviy modellashtirish uchun muhim vosita bo‘lib, murakkab hisob-kitoblar va kirish ma'lumotlarini osongina o‘zgartirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Excel buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil sohasida nafaqat amaliy vosita, balki strategik ahamiyatga ega bo‘lgan platforma bo‘lib, uning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish buxgalteriya kasbining samaradorligi va innovatsion rivojlanishini ta'minlaydi.

A	A	B	C	D
1				
2	Nomi	Jami narx	Chegirma,	Chegirma, so'm
3	Muzlatgich	12 000 000	13%	=B2*C2
4	Dazmol	5 600 000	8%	1440000
5	Gilam	10 500 000	10%	1.105000
6	Changyutgich	1 200 000	0%	650 000
7	Konditsioner	8 000 000	5%	1 600 000
8	Fen	3 500 000	6%	725 000
9	Ventilyator	390 000	13%	1 080 000
10	Gaz plitasi	2 700 000	20%	10800 000
12	Formula chegirmani hisoblash uchun:			
13				

Ushbu bo‘limda Excel dasturining buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlildagi imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan strukturaviy yondashuv taqdim etiladi. Biz Excelning turli funksional qatlamlarini, asosiy ma'lumotlarni boshqarishdan tortib, murakkab moliyaviy modellashtirish va avtomatlashtirishgacha bo‘lgan imkoniyatlarini o‘rganamiz. Bu metodologiya Excelning buxgalteriya jarayonlariga integratsiyalashuvini va ularni qanday qilib takomillashtirishini to‘liq tushunishga yordam beradi.

AVERAGE funksiyasi yordamida o‘rtacha qiymatni aniqlash

Nazariy asos: AVERAGE funksiyasi sonlar to‘plamining o‘rtacha arifmetik qiymatini hisoblaydi.

Amaliy qo‘llanilishi: Talabaning baholari: 4, 5, 3, 5



Formula: =AVERAGE(A1:A4) Natija: 4.25

Tahlil: Bu funksiya ta'lim tizimida o'quvchilar reytingini aniqlashda keng qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Benninga, Simon. Moliyaviy Modellashtirish. Cambridge, MA: The MIT Press, 2014.

[2] Albright, S. Christian, Wayne L. Winston, and Christopher J. Zappe. Ma'lumotlar tahlili va Qaror qabul qilish Microsoft Excel bilan. Boston, MA: Cengage Learning, 2017.

[3] Bell, K. L., and Fannin, P. M. "Microsoft Excel ko'nikmalarining buxgalteriya talabalari uchun ahamiyati." Biznes uchun ta'lim jurnali, vol. 85, no. 1, 2009, pp. 4-9.

[4] Gleim, J. R., & Finkle, T. A. "Menejerlik Qaror Qabul Qilishda Elektron Jadval Dasturining Analitik Vosita Sifatidagi Samaradorligini O'rganish." Biznes va Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnali, vol. 18, no. 1, 2012, pp. 104-123.

[5] Powell, Stephen G., and Kenneth R. Baker. Menejment Fani: Elektron jadvallar yordamida modellashtirish san'ati. Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2017.



**АКАДЕМИК ТА’ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР
ИНТЕГРАТСИЯСИ: ТОШКЕНТ ШАҲАР 1-СОНЛИ АКАДЕМИК
ЛИТСЕИДА НАВРО‘З БАЙРАМИ МИСОЛИДА**

Nurimbetova Dilnoz

Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi
Toshkent 1-sonli akademik litseyi
ingliz tili fani bosh o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi Toshkent shahar 1-sonli akademik litseyida Navro‘z bayramining yuqori tashkiliy va ma’naviy-ma’rifiy darajada o‘tkazilishi tahlil etiladi. Tadbir jarayonida milliy qadriyatlar, an’ana va urf-odatlarining yoshlar ongiga singdirilishi, ularning ijtimoiy faolligi hamda jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritib beriladi.

Shuningdek, maqolada ta’lim jarayonida pedagogik mahorat, o‘qituvchilarning fidoyiligi hamda rahbarlik faoliyatining samaradorligi ilmiy nuqtayi nazardan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari bunday tadbirlarning yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Navro‘z bayrami, milliy qadriyatlar, akademik litsey, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, pedagogik mahorat, rahbarlik salohiyati, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy faollik

Kirish (Introduction):

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va ijtimoiy faollikni rivojlantirish mumkin.

Navro‘z bayrami ana shunday qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan muhim madaniy hodisa bo‘lib, uni ta’lim tizimida keng nishonlash yoshlarning ma’naviy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada Toshkent shahar 1-sonli akademik litseyida tashkil etilgan Navro‘z tadbiri ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi.

Asosiy qism:

Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi Toshkent shahar 1-sonli akademik litseyida 2026-yilgi Navro‘z bayrami yuqori tashkiliy darajada va akademik ruhda nishonlandi. Tadbir milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarini yoshlarga yetkazishda, ularning ma’naviy va madaniy rivojlanishiga xizmat qildi.

Tadbir davomida litsey jamoalari o‘rtasida turli tanlovlar va ijodiy chiqishlar tashkil etildi. Faol ishtirok etgan jamoalardan eng muvaffaqiyatli bo‘lganlari aniqlanib, 1-, 2- va 3-o‘rinlarni egallagan guruhlar alohida e’tirof etildi. G‘olib



guruhlar faxriy yorliqlar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanib, ularning sa'y-harakatlari yuqori baholandi.

Shuningdek, eng yaxshi guruh rahbari va ingliz tili bo'yicha bosh o'qituvchi Nurimbetova Dilnoz deb topilib, litsey rahbari Sh.M. Turayev tomonidan rag'batlantirishlar bilan munosib taqdirlandi.

Alohida ta'kidlash joizki, Nurimbetova Dilnoz o'z o'quvchilariga nafaqat pedagog sifatida, balki yuksak insoniy fazilatlar sohibi sifatida yondashib, ularni o'z farzandidek mehr va e'tibor bilan tarbiyalaydigan, ta'lim jarayonida bilim va tajribasini ayamadan safarbar etadigan fidoyi hamda yuqori malakali ustoz sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, litsey rahbari Sh.M. Turayev jamoada olib borilayotgan samarali faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi, mehnatning haqiqiy qadriga yetadigan hamda yuqori darajadagi boshqaruv salohiyatiga ega bo'lgan zamonaviy va yetuk rahbar sifatida e'tirof etiladi.

Navro'z bayrami nafaqat milliy bayram sifatida, balki jamoada o'zaro hurmat, hamjihatlik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Shu kabi tadbirlar yosh avlodni vatanparvarlik va ilmiy-intellektual salohiyatini rivojlantirish ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadbir barcha ishtirokchilar qalbida unutilmas taassurot qoldirdi va ularni yangi yutuqlar sari ilhomlantirdi.

Xulosa (Conclusion):

Xulosa qilib aytganda, akademik litseyda o'tkazilgan Navro'z bayrami nafaqat madaniy tadbir, balki samarali pedagogik vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Tadbir orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, jamoaviylik, ijtimoiy faollik va ijodkorlik ko'nikmalari shakllandi.

Shuningdek, pedagoglarning fidokorona mehnati va rahbarning samarali boshqaruv faoliyati ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi. Shu bois, bunday tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish va ilmiy asosda rivojlantirish ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



ПРОБЛЕМЫ БИЛИНГВИЗМА В ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Саттарова Малика Катибжановна
University of business and science
Стажер-преподаватель
malika.sattarova777 [@gmail.com](mailto:malika.sattarova777@gmail.com)

Аннотация В работе рассматриваются основные проблемы билингвизма в процессе изучения русского языка в условиях многоязычного общества. Актуальность темы обусловлена широким распространением русско-национального двуязычия в странах Центральной Азии и возрастающей ролью русского языка как средства межкультурной коммуникации и образования. Анализируются ключевые аспекты билингвизма, включая его виды и особенности формирования.

Ключевые слова: билингвизм, русский язык, **интерференция языков, контрастивный анализ языков, расширение словарного запаса, несбалансированный билингвизм, фонетическая интерференция, лексическая интерференция, грамматическая интерференция, код-свитчинг, смешение языков.**

В современном мире билингвизм является широко распространённым явлением, обусловленным глобализацией, миграционными процессами и многоязычной средой. Всё больше людей владеют двумя и более языками, что оказывает значительное влияние на процессы обучения и коммуникации. Особенно актуальной становится проблема изучения русского языка в условиях билингвизма, поскольку взаимодействие языков может как способствовать развитию личности, так и создавать определённые трудности.

Билингвизм определяется как способность человека использовать два языка в повседневной жизни. При этом уровень владения языками может быть различным: один из них, как правило, становится доминирующим. Это оказывает влияние на формирование языковой компетенции, особенно при изучении русского языка как второго или неродного.

Одной из центральных проблем является **интерференция языков**, то есть влияние одного языка на другой. Как отмечают исследователи, «билингвы встречают некоторые трудности, такие как ошибки в правописании, произношении отдельных слов».

Интерференция проявляется на нескольких уровнях:

- **Фонетический уровень** — неправильное произношение звуков, отсутствие различия между твёрдыми и мягкими согласными;
- **Лексический уровень** — калькирование слов и выражений;
- **Грамматический уровень** — ошибки в падежах, согласовании и построении предложений.

Особенно сложной является **грамматическая интерференция**, так как



грамматическая система русского языка существенно отличается от многих других языков. В исследованиях подчёркивается, что «грамматический аспект языка сильно подвержен изменению в условиях двуязычия».

Второй важной проблемой является **ограниченность словарного запаса**. У билингвов часто наблюдается неравномерное развитие языков: один язык используется чаще и становится доминирующим, тогда как второй развивается слабее. Это приводит к трудностям в выражении мыслей, особенно в письменной речи и академическом общении.

Третьей проблемой выступает **кодовое переключение (код-свитчинг)** — смешение языков в процессе общения. В условиях русско-узбекского билингвизма, например, отмечается, что разные языки используются в разных сферах: один — в бытовом общении, другой — в образовании и официальной коммуникации. Это может затруднять формирование устойчивых навыков владения русским языком.

Психологические и когнитивные трудности

Билингвизм влияет не только на язык, но и на мышление человека. Языки формируют разные картины мира, поэтому учащиеся могут испытывать трудности при усвоении новых понятий и категорий русского языка. Особенно это касается абстрактных понятий и грамматических категорий, не имеющих аналогов в родном языке.

Кроме того, билингвы часто сталкиваются с психологическими трудностями: неуверенностью, страхом ошибок, языковым барьером. Недостаточная практика и отсутствие языковой среды могут снижать мотивацию к изучению русского языка.

Социокультурные факторы

Важную роль играют социокультурные условия. В многоязычных обществах языки распределяются по сферам употребления. Например, один язык может использоваться в семье, а другой — в образовательной и профессиональной среде. Это влияет на уровень владения языками и мотивацию к их изучению.

Статус русского языка в обществе также имеет значение. Если язык востребован в образовании, науке и деловой сфере, это способствует его более успешному освоению. В противном случае интерес к его изучению может снижаться.

Проблемы методики преподавания

Серьёзной проблемой является недостаточная адаптация методик преподавания русского языка для билингвов. Традиционные методы обучения не всегда учитывают особенности двуязычных учащихся. Как отмечают исследователи, необходимы специальные подходы, направленные на формирование коммуникативной компетенции и преодоление интерференции.

Кроме того, отсутствует достаточное количество учебных материалов, ориентированных именно на билингвов. Это затрудняет процесс обучения и снижает его эффективность.



Пути решения проблем

Для преодоления трудностей билингвизма необходимо использовать комплексный подход:

1. **Контрастивный анализ языков** — выявление сходств и различий между родным и русским языками;
2. **Коммуникативный подход** — развитие практических навыков общения;
3. **Расширение словарного запаса** через чтение и практику речи;
4. **Создание языковой среды**, способствующей регулярному использованию русского языка;
5. **Индивидуальный подход** к учащимся с учётом их языкового опыта.

Важно также развивать мотивацию к изучению русского языка через знакомство с культурой, литературой и традициями.

Таким образом, билингвизм представляет собой сложное и многогранное явление, оказывающее значительное влияние на процесс изучения русского языка. Основные проблемы связаны с интерференцией, ограниченным словарным запасом, смешением языков, а также психологическими и социокультурными факторами. Однако при правильной организации обучения билингвизм может стать не препятствием, а ресурсом, способствующим развитию языковой личности.

Список использованной литературы

1. Кривошапова Н. В. Детский билингвизм: проблемы при усвоении русского и болгарского языков // Полилингвильность и транскультурные практики. 2017. ([Портал научных периодиков РУДН](#))
2. Маханькова И. П., Новикова Н. С., Серова Л. К., Хворикова Е. Г. Обучение билингов русскому языку: проблемы и решения // Полилингвильность и транскультурные практики. 2013. ([Портал научных периодиков РУДН](#))
3. Бочко М. М. Билингвизм: проблемы грамматической интерференции // Филологические науки. 2021. ([SciPress](#))
4. Хафизова М. А., Пирназарова У. Ш. Социоллингвистический анализ русско-узбекской билингвальной коммуникации в молодёжной среде // Лучшие интеллектуальные исследования. 2025.
5. Арефьев А. Л., Бахтикиреева У. М., Синячкин В. П. Проблемы билингвизма в системе школьного языкового образования Республики Тыва. 2021. ([nit.tuva.asia](#))



**“BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING FORTEPIANO
IJROCHILIGIDA JO‘RNavozLIK KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH VA ANSAMBL MADANIYATI MECHANIZMLARI”**

Normurodova Lobar Mamasoliyevna

Navoiy davlat universiteti Pedagogika nazariyasi.

Pedagogik ta'limotlat tarixi yo'nalishi

tayanch doktorant

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Yuldoshev Umid Yuldoshovich

nolo8791@gmail.com

ORCID: 0009-0002-6217-5116

Annotatsiya Mazkur tezis bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida fortepiano jo'rnavozligining o'rni hamda uning ansambl madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Jo'rnavozlik jarayonida shakllanadigan eshituv madaniyati, ijrochilik hamkorligi, ritmik barqarorlik, interpretatsion moslashuvchanlik va kommunikativ ko'nikmalar ansambl madaniyatining tarkibiy komponentlari sifatida asoslanadi. Shuningdek, jo'rnavozlikni o'qitishning bosqichli metodik modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: fortepiano jo'rnavozligi, ansambl madaniyati, kasbiy kompetensiya, interpretatsiya, ijrochilik hamkorligi, pedagogik tayyorgarlik.

Abstract: This thesis analyzes the role of piano accompaniment in the professional training of future music teachers and its pedagogical potential in the formation of ensemble culture. The components of ensemble culture formed in the process of accompaniment, such as auditory culture, performance collaboration, rhythmic stability, interpretative flexibility, and communicative skills, are substantiated. In addition, a step-by-step methodological model for teaching accompaniment is proposed.

Keywords: piano accompaniment, ensemble culture, professional competence, interpretation, performance collaboration, pedagogical training.

Аннотация: В данной статье анализируется роль фортепианного аккомпанемента в профессиональной подготовке будущих учителей музыки, а также его педагогические возможности в формировании ансамблевой культуры. Обосновываются такие компоненты ансамблевой культуры, формирующиеся в процессе аккомпанирования, как слуховая культура, исполнительское сотрудничество, ритмическая устойчивость, интерпретационная гибкость и коммуникативные навыки. Также предлагается поэтапная методическая модель обучения аккомпанированию.

Ключевые слова: фортепианный аккомпанемент, ансамблевая культура, профессиональная компетенция, интерпретация, исполнительское сотрудничество, педагогическая подготовка.



Bo'lajak musiqa o'qituvchisidan nafaqat yakka ijrochilik mahorati, balki ansambl faoliyatini tashkil eta olish, vokal va cholg'u ijrochilariga professional jo'r bo'la olish, ijodiy hamkorlikni boshqara olish kabi ko'p qirrali kasbiy sifatlar talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, fortepiano jo'rnavozligi bo'lajak pedagogning kasbiy shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Ansambl madaniyati – bu ijrochilarning o'zaro eshitish, moslashish, bir butun badiiy g'oyani birgalikda yaratish va sahnaviy hamkorlikni amalga oshirish qobiliyatlari majmuasidir. Mazkur sifatlar aynan jo'rnavozlik jarayonida tabiiy ravishda shakllanadi va rivojlanadi. Jo'rnavozlik - bu musiqiy asarni ansambl shaklida ijro etish jarayonida yetakchi partiyani (vokal yoki cholg'u) badiiy, ritmik va garmonik jihatdan qo'llab-quvvatlash, asarning obrazli mazmunini chuqurlashtirish hamda ijro yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan murakkab ijodiy faoliyatdir. Nazariy jihatdan jo'rnavozlik ansambl tafakkurining shakllanishiga xizmat qiladi. Ansambl tafakkuri -bu bir vaqtning o'zida bir nechta musiqiy qatlamlarni eshitish, ularning o'zaro munosabatini idrok etish va muvozanatlashtirish qobiliyatidir. Jo'rnavoz fortepiano fakturasini ijro etish jarayonida yetakchi partiya bilan o'zaro uyg'unlikni saqlab, garmonik tayanchni mustahkamlaydi va badiiy dramatismni kuchaytiradi. Shuningdek, jo'rnavozlik interpretatsion jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jo'rnavoz asarni tahlil qilishda faqat o'z partiyasiga emas, balki umumiy partituraga tayanadi. Bu esa musiqiy matnni kompleks idrok etish va dramaturgik rivojlanishni anglashni talab etadi. Jo'rnavozlikda psixologik omillar ham alohida ahamiyatga ega. Ijro jarayonida hamkor bilan noverbal muloqot (nafas, imo-ishora, ko'z bilan aloqa) orqali musiqiy uyg'unlik ta'minlanadi. Bu jarayon ijrochilardan yuqori darajadagi diqqat, tezkor reaksiya va empatik sezgirlikni talab qiladi. **Jo'rnavoz quyidagi kasbiy sifatlarni egallashi zarur:** rivojlangan ichki eshituv va musiqiy xotira; tezkor nota o'qish (sight-reading) ko'nikmasi; transpozitsiya qilish qobiliyati; fakturani soddalashtirish yoki murakkablashtirish malakasi; improvizatsion moslashuvchanlik.

Ansambl madaniyati ko'p komponentli tuzilishga ega bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: musiqiy eshituv va polifonik tafakkur; ritmik uyg'unlik va temp barqarorligi; dinamik va artikulyatsion moslashuvchanlik; interpretatsion birlik; sahnaviy va kommunikativ madaniyat. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi uchun ushbu sifatlar ayniqsa muhimdir, chunki u maktab amaliyotida xor jamoasi, yakkanavoz ijrochilar yoki cholg'u ansamblari bilan ishlaydi. Forteplanoda jo'rnavozlik qilish jarayoni ijrochidan doimiy e'tibor, tezkor reaksiya va eshituv nazoratini talab qiladi. Jo'rnavoz bir vaqtning o'zida: hamroh ovozni qo'llab-quvvatlaydi; umumiy badiiy tasvirni boyitadi; ijrochining nafas olishi va frazlashiga moslashadi; ritmik asosni barqaror saqlaydi. Forteplanoda jo'rnavozlik qilishda yuqoridagi sifatlarni rivojlantirish uchun albatta bir qancha vaqt, sabr va mehnat lozim bo'ladi. Yaxshi jo'rnavoz bo'lish uchun jo'rnavozda ijro texnikasi yaxshi shakllangan, musiqiy eshitish rivojlangan, notani varqadan o'qish qobiliyatlari tezkor bo'lishi kerak. Demak jo'rnavozlik qilishgacha bo'lgan muddatda ijrochi o'z ustida ishlashi lozim. Texnikani rivojlantirish uchun har kunlik muntazam forteplanoda shug'ullanish, ganon va shunga o'xshash mashqlar,



gammalar ijrosi, arpedjiolar, etyudlar (K.Cherning op299 va op 740 etyudlar to'plamidan boshlash maqsadga muvofiq) chalish. Notani varaqdan o'qish qobiliyatini tezkor qilish uchun esa albatta, ko'plab yangi asarlar bilan tanishib chiqish. Bunda yangi asarlarni yodlash darajasiga yetkazish shart emas. Notanish asarni bir necha bor chalib chiqish kifoya. Musiqiy eshitish qobiliyati esa barcha musiqachilarda bor bo'lishi kerak bo'lgan xususiyat va buni faqat rivojlantirish kerak. Jo'rnavoz uchun ichki ritmni his qilish nihoyatda muhim hisoblanadi. Ritmni yaxshi his qiladigan fortepiano ijrochisi jo'rnavozlik qilishga qiynalmaydi. Bundan tashqari jo'rnavozdan hamroh ovozni doimiy qo'llab quvvatlash talab etiladi. O'quvchiga jo'rnavozlik qilish jarayonida hamroh ovozdagi ritmik buzilishlar yoki adashish, to'xtab qolish kabi vaziyatlarda ham jo'rnavozdan hamroh ovozni qo'llash talab etiladi. Jo'rnavozlik faoliyatida ritmik barqarorlik -ansambl uyg'unligining asosiy tayanchi hisoblanadi. Ayniqsa, vokal yoki cholg'u ijrochisiga jo'r bo'lish jarayonida tempni saqlash, agogik o'zgarishlarga moslashish va ichki pulsni yo'qotmaslik jo'rnavozning kasbiy yetukligini belgilaydi. Quyidagi ritmik barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik mashqlar tizimi bo'lajak fortepianoda jo'rnavozlik qiladigan ijrochilar uchun bir qancha foydali bo'lishi mumkin. **Ichki pulsni shakllantirish mashqlari** Maqsad: metronomsiz barqaror tempni ushlab qobiliyatini rivojlantirish. Metronom bilan 4/4 o'lchovda oddiy akkordlar ketma-ketligini ijro etish, so'ng metronomni o'chirib, ichki sanash asosida davom ettirish. Har 8 taktadan so'ng metronomni qayta yoqib, temp og'ishini tekshirish. **Bir qo'l bilan ritmik ostinato, ikkinchi qo'l bilan erkin frazalash mashqlari.** Bu mashqlar ichki ritmik nazoratni mustahkamlaydi va tashqi omillarga qaramlikni kamaytiradi. **Sinkopali va murakkab ritmlar bilan ishlash** Maqsad: ritmik elastiklikni oshirish. Sinkopali ritm formulalarini alohida mashq qilish (masalan, ♪ ♫ yoki ♪. ♫). Murakkab o'lchovlar (5/4, 7/8)da qisqa faktura namunalarini ijro etish. **Poliritmik mashqlar** (bir qo'lda triol, ikkinchi qo'lda duol). Bu mashqlar jo'rnavozning murakkab ansambl vaziyatlarida ham barqarorlikni saqlashiga yordam beradi. **Yetakchini kuzatish mashqi** Maqsad: ansambl moslashuvchanligini shakllantirish. Hamroh ijrochi bilan ishlaganda ataylab kichik agogik o'zgarishlar kiritiladi. Jo'rnavoz tempni yo'qotmasdan, shu o'zgarishlarga moslashishi kerak. **Nafas olish va frazalashni kuzatish asosida kirish va yakunlarni aniqlashtirish.** Bu mashq ritmik barqarorlikni mexanik emas, balki ongli boshqariladigan jarayonga aylantiradi. **Ritmik reduksiya usuli** Maqsad: fakturani soddalashtirib, asosiy pulsni aniqlash. Murakkab fortepiano partiyasini dastlab faqat bass chiziqlari asosida ijro etish. So'ngra asosiy urg'ularni ajratib, minimal akkord shakliga keltirish. Keyinchalik to'liq fakturaga qaytish. Bu usul asardagi ritmik skeletni his qilishni o'rgatadi. **Tanaviy ritm mashqlari** Maqsad: ritmni jismoniy sezgi orqali mustahkamlash. Qo'lda chalish, oyoq bilan pulsni bosish orqali murakkab ritm formulalarini takrorlash. **Improvizatsion ritm mashqlari** Maqsad: tezkor reaksiya va ijodiy barqarorlikni rivojlantirish. Berilgan tempda oddiy garmonik aylanish ustida turli ritmik variantlar yaratish. Yetakchi partiya to'xtaganda tempni saqlab qolish mashqi. **Kutilmagan pauzadan so'ng aniq kirish mashqlari.** Bu usul jo'rnavozning sahna holatlariga psixologik



